**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKUL`TETI**

**MUSIQA TA`LIMI KAFEDRASI**

**Ergasheva Qizlarxon Amonjon qizi**

5111100-“Musiqa ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**“Vokal san’atida o`quvchilar ovozini tarbiyalash uslublari”**
mavzusida yozgan

# Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: dots. Ismoilova M

**“Himoyaga tavsiya etildi**
Fakultet dekani:
________dots. Sh.Nurillayeva
____________ 2018 yil

Qarshi-2018 yil

**MUNDARIJA.**

**Kirish…………………………………………………………..........…......   3**

**I.BOB. Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san’atining ahamiyati**

I.1. Jahon va o`zbek vokal san’atining rivojlanish tarixi …………………8

I.2. O`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san’atining roli.....................21

**II.bob.Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san’ati uslublaridan foydalanish**

II. 1.Umumta’lim maktablarida qo`shiqchilik faoliyati samaradorligini oshirish yo`llari...........................................................................................28

II. 2  O`quvchilarga vokal janrini o`rgatish uslublari..................................36

II. 3. O`quvchilar ovozini rivojlantirish bo`yicha o`tkazilgan tajriba –sinov natijalarini aniqlash..........................................................................47

**Xulosa…………………………………………………………...........57**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..........................................................59**

**Ilovalar.........................................................................................62**

# Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda o`sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog`lom, ma'nan yetuk shaxslar qilib tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri desak mubolag`a bo`lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yoshlarimizni sog`lom va barkamol etib tarbiyalash masalalarida mulohaza yuritib shunday deydilar – "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo`g`inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o`zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz[1]".Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdurauf Fitratning "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo`lishi, baxtli bo`lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo`lishi yoki zaif bo`lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o`zgalarga tobe va qul, asir bo`lishi ularning o`z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog`liqdir"- degan so`zlari yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga egadir.

Umumiy o`rta ta'lim maktablarining yana 11 yillik ta'lim tizimiga o`tkaziluishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim bo`lgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko`lamini yanada kengaytirish va sifat jihatidan yangilashni talab etadi. Bu o`z navbatida ta'lim-tarbiya sohasida faoliyat yuritayotgan ustozlardan ijodiy izlanishni, ishga yangicha yondashishni, fidoiy mas'uliyatni, hamda o`z kazbining haqiqiy ustasi, jonkuyari bo`lishni talab qiladi.

O`quvchi ma'naviyatini shakllantirish, bu doimiy tizimlilik, uzviylikni , davomiylikni talab etadi. Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yanada mazmunini boyitib, o`quvchilarni ijodkorlikka yo`naltirish katta ahamiyat kasb etadi.

2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g`oyalar va texnologiyalarni qo`llab quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish

[1]Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. Toshkent – "O`zbekiston" – 2017 yil, 22-bet.

natijasida yoshlarimizni ish bilan ta’minlash, maktablarda ham yangi pedagogiktexnologiyalardan keng foydalanish natijasida yosh avlodni har bir ishda qo`llab quvvatlash, iste’dodlarini namoyish qilish masalalari nazarda tutilgan. Bularning hammasi yoshlarga, mamlakatimiz tayanchi, kelajak vorislariga bo`lgan ishonch namunasidir.

Umumta’lim maktablari o`quvchilarini “Musiqa madaniyati darslari orqali ma’naviyatlarini oshirish, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishni namoyon etish, vatanparvarlik g`oyalarini shakllantirishda musiqa vositalaridan, jumladan musiqiy janrlardan biri vokal san’atini anglash, tushunish, tahlil qila olish ko`nikmalarini singdirish katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, unga zamon talabidan kelib chiqib yondashish zarurligini ko`rsatadi.

Xalqimiz ayniqsa she’riyat bilan bevosita bog‘langan folklor qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, maqom sikllari, katta va mumtoz ashulalarga nihoyatda boy. Keyingi yillarda Yevropa uslubidagi vokal asarlari ham yaratildi.

Ayni paytda shuni alohida ta’kidlash lozimki, ashulachiligimiz va vokal san’atining kuylash monerasi va xonandalik sirlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar nihoyatda kam. Bu borada chet el olimlarining yozgan ilmiy ishlari, darslik va qo‘llanmalari anchagina. Xususan, Dimitriyev G. Zeydler, I.M. Gaziyev, G.N. Maraxtanova, N.I. Kuznetsov, A.E. Hoffman va boshqalarning yozgan kitoblari va ilmiy ishlari diqqatga sazovordir.

O‘zbekistonda yashab, vokal uslubiyati bo‘yicha ilmiy ishlar yozgan mualliflardan G.Mullaqandov, I.P.Brizgalov, Y.N. Plaxova, Sh.Pirmatov, N.Qaxxorov[2], M.Rizayeva[3], M.Hamidova, G.Muhammedova, M.I.Ismoilova[4] va boshqalar ham bu mavzuning ayrim qirralarini yoritib berganlar.

O‘zbekistonda milliy monerada kuylash uslublarining mohir ustalari Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, Domla Halim Ibodov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Karim Zokirov va ularning izdoshlari vokal

[2]Qahhorov N.B. Vokal asoslari Toshkent, Iqtisod-Moliya. 2008 yil -360 bet.
[3]Rizayeva M.N. Yosh xonanda kamoloti. Toshklent, “Cho`lpon” nashriyoti, 2006 yil -36 bet.
[4]Ismoilova M. Vokal o`qitish metodikasi. Toshkent, “Musiqa” nashriyoti. -65 bet

texnikasini to‘liq egallagan S.Qobulova, H.Nosirova, N.Hoshimov, B.Zokirov, S.Yarashev, Yu.To`rayev, Q.Muhiddinov va boshqa ko‘plab ashulachilarning ovoz xususiyati va kuylash texnikasi ustida deyarli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Vokalni ularning kuylash texnikasi va ashulachiligining sir-u asrorlari ochilmagan qo‘riq bo‘lib qolmoqda va yosh xonandalarning o‘zlariga aniq bir yo‘nalish topib olishlariga katta to‘sqinlik qilmoqda.

Biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda ana shu dolzarb muammoning kichik bir tomonini yoritib berishga harakat qildik va mavzuyimizni: “O`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san’atining o`rni va ahamiyati” deb belgiladik.

**Bitiruv ishining maqsadi:** Umumta’lim maktabi o`quvchilarining “Musiqa madaniyati darslarida o`rganilayotgan mavzular va  qo`shiqlar mazmuni, asarlarning janri, badiiy ijrosi, kompozitorlar faoliyati, ijodi haqida keng ma’lumot berish va asarlarning janrlarini farqlay olish malakalarini egallashga o`rgatishdan, hamda shu asarlarni o`rganishda vokal san’ati uslublarini keng qo`llashdan iborat.

**Bitiruv ishining  vazifalari** tanlangan mavzuning dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilandi:

1.Umumta’lim maktablari o`quvchilarini qo`shiqchilikka qiziqishini oshirish.

2.Ularda xalqimizning milliy musiqiy merosini o`zlashtirish bilan bir qatorda zamonaviy kuy-qo`shiqlar, katta janrga mansub bo`gan simfonik asarlar orqali vatanparvarlik, insonparvarlik hislarini shakllantirish.

3.Tinglangan asarlarni mustaqil tahlil etish masalalarini o`zlashtirishga qaratish.

4. Olingan bilim, to`plangan tajribaga suyanib asarlar mazmuni va janrlarini farqlay olish ko`nikmalarini, egallash.

5. Asarlarni o`rganishda vokal pedagogikasi uslublarini keng qo`llash va ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyanomalar ishlab chiqish

**Bitiruv ishining ob'ekti:**  Qarshi shahar 5-son  umumiy o`rta ta'lim maktabi o'quvchilarining  1-7- sinflarida amalga oshirib boriladigan musiqa madaniyati darslarining mazmuni hisoblanadi.

**Tadqiqot ishining predmeti:** Vokal san’ati orqali o'quvchilar ovozini tarbiyalashni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:** O'quvchilar bilan suhbat, bahs-munozara yuritish intervyu olish, anketa savol-javoblarini o'tkazish va sinov-tajriba ishlarini olib borish. Bolalar yoshi va ovoziga mos bo`lgan vokal va zamonaviy qo`shiqlardan eng saralarini tanlab olish va musiqa madaniyati darslarida keng foydalanishdir.

**Bitiruv ishining ilmiy farazi:** Vokal san'ati orqali o'quvchilar ovozini tarbiyalashni samarali amalga oshirish mumkin, agarda:

-O'quvchilarni ovozini tarbiyalshni amalga oshirishda bolalar vokal va zamonaviy qo`shiqlarining o'rni va ahamiyati tarixiy va nazariy asoslansa;

-Bolalar zamonaviy qo`shiqlaridan vokal to'garaklarida foydalanishning samarali yo'l va uslublari ishlab chiqilsa;

- Ushbu ish o'quvchilarni vokal san'ati orqali tarbiyalashning maqsad va vazifalari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa;

- Jahon va o`zbek vokal asarlarini yaratgan mualliflarning hayoti va ularning yozish uslublariga xos xususiyatlari bilan o'quvchilarni tanishtirib borilsa;

-O'rganiladigan bolalar vokal va zamonaviy estrada qo`shiqlarining mazmuni bilan o'quvchilarni batafsil tanishtirib borilsa ko'zlagan maqsadga erishish bir muncha osonlashadi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini** "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O`rta Osiyo mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga bag`ishlangan fikrlari, pedagogika va psixologiya olimlarining mavzuga oid qarashlari. Vokal pedagogikasi mutaxassislarining fikrlari, O`zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning va prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalarida ko`tarilgan madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, qadriyatlar to`g`risidagi fikr-mulohazalari va ko`rsatmalaridan iborat.

**Tatqiqotning ilmiy yangiligi: -** O`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san'atining o`rni va ahamiyati pedagogik muammo ekanligi tadqiq etildi.

-Umumiy o`rta ta'lim maktablarida vocal san'ati orqali o`quvchilar ovozini tarbiyalashga qaratilgan mashg`ulotlarning mazmuni ishlab chiqildi.

-O`quvchilarni vokal san’atini o`rgatishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni samaradorlik darajasi aniqlandi.

-O‘quvchilarda vokal san’atini o`rgatishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

-Vokal san’ati orqali o‘quvchilar ovozini tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo ekanligi yaxlit , bir butun holatda tadqiq etildi.

-Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o`quvchilarni vokal san’ati orqali musiqiy estetik tarbiyalashga qaratilgan mashg‘ulotlarning mazmuni va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** shu bilan belgilandiki, undagi nazariy xulosalar o`quvchilarni vocal asarlarini kuylashida o`z ta`sirini o`tkazdi. Muammoga tegishli nota ishlanmalarini uslubiy ko`rsatmalarni 1-7 sinf musiqa madaniyati darslarida va talabalarning musiqiy pedagogik amaliyotida qo`llash mumkin.

Tayyorlangan bitiruv malakaviy ishimizning **ustivor g'oyasi** shundan iboratki musiqa o`qituvchisi maktab o'quvchilariga bolalar vokal va zamonaviy qo`shiqlarni mohirlik bilan o'rgata olsa o'quvchilar qalbida axloqiy va estetik tarbiya asta-sekin shakillana bo`radi.

**Bitiruv malakaviy ishimiz tarkibi** kirish, ikki bob, 5ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

# I.BOB: Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san’atining ahamiyati

## I.1. Jahon va o`zbek vokal san’atining rivojlanish tarixi

Dunyo vokal pedagogikasining rivojlanish davri uning tarixiy rivojlanishiga bog`liqdir. Bu tarix juda qadimiy davrlardan boshlangan. Bizning eramizgacha qadimiy Misr, kichik Osiyo va qadimgi Gretsiyada shodiyona bayramlar, musobaqalar, difiramb shaklida tuzilib, ijro etilgan. Qadimiy Gretsiyada (Yunonda) yakkaxon ijrochilar o`zlari shoir kompazitor bo`lishgan. Shu davrda erkak ovozlar bir necha turlardan iborat bo`lgan.

1.Netoide – bu ovoz virtuozlar ovozi bo`lib, bu ovoz orqali erkak ariya

xilidagi asarlar ijro etilgan.

2.Mesoide- bu ovoz ommabop qo`shiqlar, xor uchun qo`llanilgan.

3.Iratoide- tragediya asarlarini ijro etish uchun qo`llanilgan.

XVI-XVII asrlar musiqa tarixida nazariy tushunchalar bo`lgan, ashulachilik va uning texnik uslublarini, ilmiy asosda ovoz hosil qilish jarayoniga bog`lay oladigan asarlar olib keldi. Bu asarlarning nomlari hozirgacha yetib kelgan bo`lib, vokal tarixining rivojida natija bergan.

Tsarlino buyuk Rim o`qituvchisi o`zining "Garmoniya asoslari" asarida tovushning tabiiy hosil bo`lishida tabiat tomonidan berilgan tomoq, til, tanglay, o`pka qismlari tovush hosil qiladi va shu tovushdan so`z va ashula tug`iladi. Nutq haqida: unli tovushlar talaffuz paytida o`zgarmasligi va shu orqali ma`noli aytishga o`rgatish, hamda unlilarning oddiy bo`lib qolmasligini kuzatib borish kerakligini aytib o`tgan.

Italiyadagi ikkinchi vokal o`qituvchisi Tsakkoni "Musiqa amaliyoti" deb nomlangan, hozirgacha saqlangan buyuk asarida ko`p tovushli va II, III tovush uchun yozilgan asarlarni ijro etishda yakkaxon boshqa tovushlarni garmoniyasi bilan qo`shilib ayta bilsagina, shu asardan saqlana oladi, deydi. Tsakkoni asaridagi melezmlarni ishlatish usullarini o`rganishda, yaxshi xonandalarni eshitib, o`rganishni tavsiya qilgan. Uning fikricha ko`krak tovushlari tabiiy hisoblangan, chunki bu tovushlar o`zining musiqiyligini va jarangdorligi bilan ajralib turadigan xususiyatga egadirlar, deb ayniqsa, undoshlarni ijro etish qattiq, kuchli va tez bo`lishini talab qilgan.

Vokalizlarni hamma unlilar bilan aytish kerakligini, halqumning harakatchanligi, trel va passajni aytib o`rganishga bog`liqligini ta`kidlab o`tgan. Bu uslublarni o`rganish asta-sekinlik bilan tez suratga o`tish imkonini bergan.

Djulio Kachchini (1545-1618).XVI asrda Florensiya shahrida kompozitor va shoirlardan iborat bo`lgan to`garak tuzilgan. Kachchini, Peri, Kavaleri va shoirlar Korsi, Bardi va Rinuchinilar (ular musiqiy qobiliyatga ega bo`lib, bu reformaning kelib chiqishiga sabab bo`lishgan). Keyinchalik bu to`garak Bardlar akademiyasiga aylangan. Manashu musiqiy reforma opera, oratoriya, kantata kelib chiqishiga asos

bo`lgan. Shu reformaning asoschilaridan biri bo`lgan buyuk tenor va kompozitor – Djulio Kachchini Rimda tug`ilgan.

1601 yil Kachchini madrigallar to`plamini nashr etib, unga "Nuove Musiche" («Новая музыка»)– deb nom bergan. Bu asarda vokal metodologiyasi haqida buyuk fikrlar berilgan bo`lib, badiiy ashulachilik rivojida katta ahamiyatga ega. Djulio Kachchinini vokal pedagogikasi uchun qilgan eng katta xizmatlaridan biri, asar mazmunini boyitish orqali "ifodali o`qish" uslubida ish olib borib, ovozni rivojlantirishga qaratilgan edi.

Buyuk vokal pedagogi A.Porpora, kastratlar (sopranistlar) vocal maktabining rivojlanishi.

Florensiya reformasi sharofati bilan rivojlangan, keng kantilenaga asoslangan chiroyli kuychan ashula, o`sha davrdagi kompozitorlar asarlarida, eng yuksak talablarga javob bera oladigan badiiylikka erishishga muvaffaq bo`ldi.

XVII asr oxiriga borib, operadagi dramatik voqea va uning mazmuni ikkinchi darajaga surilib, vokal virtuoz ijro o`sishiga ko`proq ahamiyat berila boshlandi. XVIII asr Italiya opera musiqasida erishilgan muvaffaqiyatlar yo`qqa chiqib, xonandalar o`rtasidagi vokal texnik tomonidan olib boriladigan musobaqalar, misli ko`rilmagan darajada rivojlanib bordi. Bu davr ichida kastratlar[5] vokal san`ati rivojlanishini eng yuqori pog`onaga ko`tarildi. Kostrat xonandalar vakillari Tozi, Ferri, Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberti-Porporino, Markezi va boshqalar vokal texnikasi rivojlanishida kamolot cho`qqisiga erishdilar. Bu xonandalar ikki oktavalik gammalarni bir nafasda ijro etdilar.

Buyuk pedagog Porpora o`quvchilari ichida eng taniqli xonanda Kastratlar: Kafarelli, Farinelli, Bernakki, Uberti-Porporino, Apianni, hamda ayol xonandalar Mingotti, Gabrielli va boshqalar bor edilar.

Porpora o`z o`quvchilarining asarlarini ifodali, chuqur ma`noli, virtuoz aytishga o`rgatdi. U o`qituvchilik asarlarini ifodali, chuqur ma`noli, virtuoz

---

[5]Kastrat ovozlar – erkak ovoz kuchini saqlagan holda, ayollar ovozi diappazoniga erishishga ega bo`lganligi tufayli, texnik tomonidan juda qiyin repertuarni ijro etishgan. Kastratlarni eshitgan odamlar hayratda qolishgan.Nazarenko I.K. "Iskusstvo peniya" . Moskva, 1968 yil, "Музыка" nashriyoti.

aytishga o`rgatdi. U o`qituvchilik faoliyati usullari bo`yicha yozilgan ilmiy asarlarini qoldirmagan. U faqat to`plagan vokal mashqlarini yozib qoldirgan, hamda Kaffarellini besh yil davomida o`rgatgan taniqli “varaqa” mashqlari shular jumlasidan bo`lib, vocal pedagogikasi tarixida bu “varaqa” katta rol o`ynagan. Undan ko`p avlod o`qituvchilari foydalangan (Lablash, Garsiya va boshqalar).

Djoakkino Rossini Italyan vokal maktabining o`sishida o`zining kuchli ta`sirini ko`rsatgan. Uning operalaridagi virtuoz partiyalari, melodik chiziqlardagi qahramon xarakterlarini ochib bergan. Uning eng noyob asarlari Italiyaning ijtimoiy hayotida buyuk rol o`ynagan bo`lib, klassitsizm yo`nalishi vakili bo`lgan buyuk Rossini Italiyada yana bir yo`nalish “Romantizm yo`nalishi” ga asos solgan. Bu davrda Italiyada revolyutsion ozodlik harakatlari kuchaygan edi. Aynan shu vaqtda yirik kompozitorlar V.Belline va G. Donitsettilar o`z ijodiy ishlarini boshlashgan. Belline 34 yil umr ko`rgan bolsa-da, o`zidan keyin “Norma”, “Pirat”, “Somnambula” ga o`xshagan yirik asarlarni qoldirgan. Bu opera asarlari xozirgi kungacha jahon sahnasida ijro etiladi.

Belline bilan bir qatorda ijod etib, uzoq umr ko`rgan G. Donitsetti esa, juda ko`p opera asarlari yozgan. Ulardan eng ko`zga ko`rinarlisi “Лючия Де Ламермур” va “Севгишароби” operalarini yozgan. Bu ikki kompozitor romantizm yo`nalishida xizmat qilib, asosan fioritura (vokal bezaklari) uslubi ustida ishlab, bel kanto (go`zal ashula) usullarini rivojlantirgan. Ularning davrida xonandalar ko`krak qafasidan ko`proq foydalanishgan.

XIX asr buyuk va qudratli kompozitori Djuzeppi Verdi ijodi. Verdi o`z davrining milliy g`ururi zamonaviy Italiya tovushi bo`lib, Italiyaning ta`sirchan siyosatida dovul barobaridagi qahramonona harakat bo`lib, u Italiya vokal pedagogikasi rivojiga musiqiy dramani olib kirgan buyuk kompozitor hisoblanadi. Uning 26 ta tragediya opera asarlari xonandalardan kosta-abdominal nafasidan foydalanishni talab qildi. Bu aralash nafas katta hajmdagi, katta kuchga ega bo`lgan ovozlarning kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Shu bilan birga Italiya vokal maktabida misli ko`rilmagan ahamiyatga ega bo`lgan yo`nalish paydo bo`ldi.

Djakomo Puchchini (1858-1924). Bu yo`nalishda besh-oltita kompozitorlar ijod qilib, ularning ichida o`chmas iz qoldirgan kompozitor bu – Djakamo Puchchinidir. U haqida buyuk Verdi o`z bahosini berib, uni “mening davomchim” deb atagan va unga “Puchchini” (Italiya melodikasini ushlab turuvchi muhr) deb nom bergan. Puchchini o`z ijodida asosan “portamento” uslubini rivojlantirib, hosil qilish jarayonini boyitgan. Uning operalari “Chio-chio-san”, “Toska”, “G`arb qizi”, “Bogema” xozirgi jahon sahnasida katta o`rin olgan bo`lib, Puchchinining vokal uslublarini yuzaga chiqargan.

Nemis vokal maktabi. 1878 yildan boshlab Berlin operasida yosh xonanda Lilli Leman (1848-1929) lirik koloratura ovozi uchun yozilgan asarlarni muvaffaqiyat bilan ijro eta boshladi. 1878- yildan boshlab u dramatik soprano partiyalarini ham Germaniya va Amerika shaharlarida katta mahorat bilan ayta boshladi. 40 yildan ortiq chet ellarda gastrolda bo`ldi. Katta artistik va pedagogik faoliyatida boy vokal tajribasiga tayanib “Mening ashula aytish san`atim” nomli kitobini nashrdan chiqardi. Bu kitobdagi ba`zi bir kamchiliklarga qaramasdan, uning ayrim fikrlari, amaliy maslahatlari katta ahamiyatga ega. Uning nafas rezonatorlari, pastki, o`rta, yuqori registorlarda ovoz yuritish yumshoq tanglayning ko`tarilishi, ashula jarayonida til holati, sezgilari haqida aytilgan fikrlari shular jumlasidandir. O`ng ko`krak nafasi, ya`ni diafragmani ozgina qisqartirib, qovurg`alarni kengaytirib olingan nafasdan foydalangan. Uning fikricha xonanda gavda mushaklarini zo`r berib ishga solgandagina, nafasni nazorat qilishni sezi shga ega bo`ladi. Bu holatda nafas kam sarf qilinib, charchamasdan kuylashga o`rgatadi. Til, halqum, tanglay nazorat qilingan holda rezonans o`rinlariga yetkaziladi va bu qoida hamma ozvozlarga taaluqlidir, deydi O`qituvchi-xonanda o`z ovozining boshqa tovush holatlarini bosh rezonansga bog`lab borsagina, ovozni yosh va sof saqlab qoladi. Leman “A” unlisini ochiq aytishga yo`l qo`ymasadan “e”, “i” ga o`zshatib aytib, yuqori rezonatorga erishiladi deydi.

Buyuk rus kompazitori M.I.Glinka ajoyib xonanda va pedagok edi. Uning bebaho qo`shiqlari, romanslari va operalari, juda katta ahamiyatga ega bo`lgan ovoz rivojlantirish uchun yozilgan mashqlari, qisqa, lekin juda boy mazmunli

vokal uslubiy ko`rsatmalarida rus vokal maktabining muhim prinsplari aniqlab berilgan.

O`zining vokal mahorati orqali M.Glinka – xonanda va pedagok sifatida rus realistik ijrochiligiga asos soldi. U asos solgan rus vokal maktabi an`analarini eng buyuk pog`onaga ko`targan vokalistlar Shalyapin, Sobinov, Nejdanova va boshqalar.

Qo`shiqchilik mahoratini mukammal egallagan Glinka o`z bilimini boshqalarga bajonidil o`rgatishga tayyor edi.

Vokal san`atiga qizg`in ishqibozlik bilan yondoshgan bu buyuk kompozitor o`z o`quvchilari bilan o`tkazadigan amaliy ishlaridan tashqari, ovoz qo`yish jarayonining yangi metodika razrabotkalarini tuzib chiqqan. Glinka buyuk rus xonandasi 2 oktavalik diapazonga ega bo`lgan O.A. Petrov ovozi uchun "Упражнениядляусавершенствованиядипкостиголоса" deb nomlangan etyudlar qo`llanmasini yozdi. Petrov bu mashqlardan umrining oxirigacha foydalangan. Glinka uning ovozini "Могучибас" deb atagan. Uning ovoziga yozilgan etyudlar boshqalar ovoziga to`g`ri kelmasdi. Shuning uchun etyudlar boshqa ovozlarga transpozitsiya qilingan, shunga qaramasdan mashqlar 1 oktava atrofidagina edi. Buning sababi shundan iboratki, kompozitor fikricha mashqlarni emas, balki uning 2/5 qismida takrorlash lozim bo`lgan primar pardalardan foydalangan (ya`ni, ovozning o`rta qismi).

M.Glinka vokal tovushlarini rivojlantirishda qo`llagan "konsentrik" uslub, ya`ni primar pardalar atrofida mashqlar berish, juda yaxshi samaraga erishishga imkon berdi. Bu uslubdan hozirgi zamon o`qituvchilari foydalanib kelmoqda.
Glinka o`z o`quvchilaridan "A" unlisini Italyancha "A" ga o`xshatib aytishni talab qilgan, chunki Italyancha "A" o`tkir, to`liq jaranglaydigan, yarim esnash holatiga ega bo`lgan, yopiq aytiladigan hususiyatga ega. Uning uslublari: aniq talaffuz, normal ashulachilik "Vibrato" si, ovoz yumaloqligi, tovushni nafasga qo`yib aytishdan iboratdir.

Glinka soprano ovoziga yozgan mashqlarda ham "Konsentrik" uslubni qo`llashni tavsiya etadi. Bu mashqlardan ko`p farq qilmaydi, faqat tonalnost "fa"

majordan berilgan (“mi” dan boshlanib “re” gacha). Glinkaning xonandalik ijrosi juda buyuk, profissonal darajada bo`lib, u ayniqsa o`z romanslarini ijro etganda, shoirona, chiroyli qilib tasvirlash kuchiga ega edi. Glinka koloratura uslubini, yaltiroq, yorqin, juda yaxshi ijro etgan.

Uning fikrini ashula, buyuk ijrochilarning uslublarini o`rganish, har kungi mashqlar, metodik tomondan o`zini rivojlantirish orqali yaxshi natijalar berdi va eng asosiysi, ashula o`qituvchisi, o`zi yaxshi xonanda bo`lishi shrt, shundagina u yaxshi yutuqlarga erishadi, degan. Ulug‘ inqilobdan so‘ng qo‘shiqchilik va musiqa janrlarida yuksalish va ko‘tarilish imkonlari ochilganday bo‘ldi. Kuy va qo‘shiqlarimizni atoqli ashulachilarimizdan Muhiddin Qori Yoqubov va rus musiqashunosi Mironov tomonidan bir necha ashulalarimiz notaga olinib chop ettirildi. Uspenskiy bilan birga 2 yil davomida Shashmaqom notaga olindi. Musiqa maktablaridan chiqqan talabalar Rossiyadagi musiqa texnikumlari va institutlariga jo‘natila boshlandi. Ham o‘z musiqamiz va Yevropa musiqa olimlarining yordamlari bilan kuylarimizni notaga oldirishda Yevropa musiqasining ohang usullariga ergashtirmaylik. Yevropa ohang usullaridan ko‘z yumib qo‘shiq va kuylarimizni o‘z ohanggiga qolishiga tirishaylik degan fikr tug‘ildi. Bu to‘g‘rida Uspenskiyning katta tajribasi bor edi.

1918 yilning 1 sentyabri O‘zbekistonda opera teatri tashkil topgan kun hisoblanadi. O‘sha kuni xalq Konservatoriyasida Dargomijskiyning “Rusalka” operasi qo‘yildi. Keyinchalik boshqa operalar ham sahnalashtirila boshlandi.

Teatr uchun kadrlar tayyorlash studiyasi ish olib bordi. Bakudagi teatr texnikumida aktyorlar o‘qiy boshladi.

O‘zbekiston milliy vokal qo‘shiqchiligi haqida ancha munozaralar davom etdi. Moskva konservatoriyasi qoshidagi o‘zbek studiyasi tashkil topib unga Halima Nosirova, M. Ashrafiy, B. Inoyatov, N.Hoshimov va boshqalar o‘qiy boshladi. Ayrim nazariyachilar milliy operada bo‘g‘iz bilan kuylashni saqlab qolish zarurligini ya’ni o‘zbek xalq qo‘shiqlariga xos kuylash usulini o‘zgartirmaslik kerakligini isbotladilar. Ammo sekin-asta har qanday opera qo‘shig‘I o‘zining butun dunyo opera madaniyatiga xos qanaqadir umumiy xususiyatlarga ham ega

bo‘lishi kerak deb hisoblandi. Har qanday millatga mansub qo‘shiqchi uchun nafas olib kuylash muhimligini ta’kidlab mashhur qo‘shiqchi G‘ulom Abdurahmonov shunday degan edi. “Milliy vokal uslubi nutqning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Eng asosiysi tilning nozikligini his etishdir. Har qaysi millatda o‘zining nutq uslubi va o‘ziga xos intonatsiya xususiyatlari bo‘ladi.

Mana shularni qo‘shiqda aks ettira olish kerak. Italiya maktabidan opera tovushini va uning yo‘nalishini olish, kuylash usuli esa har bir millatning tiliga mos bo‘lishi lozim.”(G‘.Abdurahmonovning Tamara qizga yozib olgan xotiralaridan). Musiqali dramadan operaga o‘tish oson bo‘lmadi. 1940 yilda “Layli va Majnun” spektakli, “Gulsara” musiqali spektakli operaga aylantirildi. Barcha kuylarning materiallarini T.Sodiqov, N.Mironovning hamkorligida yozdi. Keyin esa musiqali dramaning partiturasi ustida ishlashga Glier ham jalb etildi.1939 yilda “Gulsara” a’lo darajada ishlangan musiqali drama sifatida ijro etildi. 1939 yilning iyunida M.Ashrafiy va Sergey Vasilenko “Bo`ron” spektaklini qo‘yishgandan so‘ng o‘zbek musiqali teatri to‘la huquqli opera teatri nomini olishga sazovor bo‘ldi. 1918 yil iyul oyida Toshkentda ochilgan Turkiston xalq konservatoriyasi O‘rta Osiyodagi birinchi musiqa maskani bo‘lib u o‘sha yilning aprel oyida tashkil topgan Turkiston Dorilfununining tarkibiga kirgan. Uni Kalenin boshqardi.

1930 yilda Toshkentda Oliy musiqa maktabi ochildi va uni oradan 2 yil o‘tgach Toshkent Davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Nazariy bahslardan amaliy ishga o‘tish munosabati bilan Toshkent Davlat konservatoriyasida o‘zbek qo‘shiqchilarining vokal tayyorgarligi masalasi vujudga keldi. Qo‘shiqlar vokal tayyorgarligi faqat O‘zbekistonda musiqali teatr san’atini rivojlantirishga xizmat qiladigan Oliy kasbkorlik ta’limi olish huquqini berib qolmadi, balki sovet davridagi qo‘shiqchilik ijodining asosi ham bo‘ldi. Toshkent Davlat konservatoriyasining bastakorlari Kozlovskiy, Mushel, Nadejdin va boshqalarning pedagogik faoliyatlari qo‘shiqchilik ijodiyotini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Qo‘shiq odamlarni tarbiyalaydi. Ularning dunyoqarashini shakllantiradi. Ro‘y bergan voqealarni aks ettiradi. Kishilarning insoniy fazilatlarini boyitadi, ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Ularning fikr tuyg‘ularini birlashtiradi. O‘zbek

vokal qo‘shiqlari Respublikadagi musiqiy vatanparvarlik, baynalminal hayotning o‘ziga xos solnomasi, xalqning mehnatdagi va qahramonlikdagi jasarotining in’ikosidir va u muhabbatni madh etuvchi asos hisoblanadi. Shularning hammasi umumiy ta’lim maktablarida, maxsus musiqa kollejlarida, institutlarda konservatoriyada musiqiy vokal ta’limini amalga oshirish jarayonida hisobga olinadi. Katta avlodga mansub san’atkorlardan T.Jalilov, Yu.Rajabiy, F.Sodiqov, I.Akbarov, D.Zokirov, Ilyos Hamroyevlar o‘sha paytdayoq milliy merosni Ovrupacha musiqa kompozitsiyasining shakllari bilan birlashtirish yo‘llarini izlay boshlagan.

Mashhur xalq musiqachilari 1941-42 yillardaT.Jalilov, K.Jabborov, H.Hasanovlar bilan yaqin aloqada ishlashdi. Ajoyib vokalchi Halima Nosirovaning qo‘shiq aytish yo‘lini o‘rgandilar. Shuning natijasida xalqning lirik qo‘shiqlari va maqomning qadimiy kuylari fortepiano uchun ham qayta ishlana boshlandi. 1939 yilda birinchi milliy opera san’ati tashkil topgan va unga bastakorlar Sergey Vasilenko hamda M.Ashrafiyning “Bo`ron”, keyin esa T.Jalilov va Boris Brovtsinning “Tohir va Zuhra”, T.Sodiqov va Glierning “Gulsara”, Uspenskiy va Mushelning “Farhod va Shirin”, T.Sodiqov va Zeydmanning “Zaynab va Omon”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, M.Ashrafiyning “Dilorom”, I.Hamroyevning “Oyjamol” va boshqa operalar yaratilgan. O‘zbek  opera san’atining yaratilishi o‘zbek xalq milliy musiqa madaniyati rivojlanganidan dalolat beradi. O‘zbek opera va balet asarlari o‘zbek xalqining o‘tmishdagi milliy badiiy madaniyati hamda o‘ziga xos musiqa san’atining boy an’analaridan foydalanish asosida yaratildi. Opera va balet asarlari ularning ohang kuy mohiyati chuqur milliy va o‘ziga xosdir. Hozirgi o‘zbek musiqa madaniyatining shakli ham vokal san’ati qo‘shiqchilik janrining barcha turlari mazmuni boy va ko‘p qirraliligidir. O‘zbekiston bastakorlarining vokal asarlari o‘zida milliy, klassik, xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy ko‘p ovozli san’atni mujassamlashtirgan. Ko‘p ovozli vokal asarlarini ijro uslublarini joriy etish, o‘zbek musiqa madaniyatini rivojlantirish uchun muhim turtki bo‘lib kelmoqda.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng yangi davrdagi ulug‘vor o‘zgarishlarni ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish miqyoslarini xalqning buyuk jasorati va matonatini ko‘p ovozli janrning vokal musiqiy janr vositalari bilan ifodalab bermoqda. Ma’lumki dunyoda hamma narsa o‘zgaradi, ya’ni rivojlanadi. O‘zbek vokal san’ati ham chuqur ildiz otib keng rivojlanib bormoqda. Barcha o‘quv dargohlarida vokal san’atini o‘qitishusl ubiyoti, ijro uslubiyoti yangi zamon talabiga mos dasturlar asosida chuqur  o‘rgatib kelinmoqda. O‘quv dargohlarida ijrochilarning yoshlariga mos vokal, ovoz qo‘yish mashqlari ishlab chiqilib hamisha takomillashtirilib kelinmoqda. Hamma qo‘shiq janrlariga ya’ni vokal janri, estrada ijro uslublari, milliy ijro uslublari, folklor ijro uslublari, lirik ijro uslublar, maqom ijro uslublari yo‘nalishida ovoz mashqlari shu janrla yo‘nalishiga mos ishlab chiqilgan. Qaysi janrga xos ijro uslubi borxonandaga o‘sha yo‘nalishdagi ovoz mashqlari ustozlar tomonidan berib, tarbiyalanib borilmoqda.

Keyingi yillarda musiqa ta’limi va tarbiyasi dasturi hamda yangi darsliklaridan o’zbek kompozitorlarining davr ruhini  aks ettiradigan yangi qo’shiqlari bilan bir qatorda, milliy musiqiy meros namunalari ham o’rin ola boshladi. Boshlang’ich sinflarda xalq musiqasi namunalari kabi ( musiqiy fol’klor) ga asosiy e’tibor qaratilgan bo’lsa, 6-7-sinflarda maqom, doston mumtoz ashula kabi kasbiy an’anaviy musiqa namunalari ko’proq tavsiya etilgan. Ammo meros va zamonaviy milliy musiqaga asosiy o’rin berilganligini asrlar davomida shakllanib kelgan jahon xalqlari musiqa madaniyatining yuksak badiiy namunalarini chetlab o’tish, deb tushunmaslik kerak. Aksincha, milliy musiqani jahon xalqlari musiqasi namunalari bilan taqqoslash asosida o’rganishgina ijobiy natijalar beradi.

A.Mansurov va D.Karimovalarning yangi 5-sinf musiqa darsligida o’quv yilining to’rtinchi choragi butunlay opera san’atiga bag’ishlangan. Bu chorakda 8 soat dars bo’lib, ularda opera san’ati, jahon opera san’atida italiyalik kompozitor Jizeppe Verdining ”Aida”, ”Rigoletto”, ”Traviata”, ”Otello”, fransiyalik kompozitor Jorj Bizening ”Karmen”, Avstraliyalik mashhur kompozitor Volfgahg Amadey Motsartning ”Sehrli fleyta”, ”Figaroning uylanishi”, Pyotr Chaykovskiyning ”Pikovaya dama”, (”Toppon xonim”), ”Yevgeniy Onegin”,

Nikolay Andreevich Rimskiy –Korsakovning ”Qor qiz”, ”Sadko”, ”Shoh Sulton haqida ertak”, ”Oltin xo’rozcha”, Mixail Ivanovich Glinkaning ”Ivan Susanin”, ”Ruslan va Lyudmila” operalarining o’rni haqida qisqa ma’lumotlar berilgan. Shuningdek Muxtor Ashrafiyning ustozi S.N.Vasilenko bilan birgalikda 1939-yilda yaratgan birinchi o’zbek operasi ”Bo’ron”, keyinchalik mustaqil o’zi yaratgan ”Dilorom” operalari, Sulaymon Yudakovning ”Maysaraning ishi” hajviy operasining o’zbek musiqasi rivojidagi o’rni ko’rsatib o’tilgan. ”O’zbek musiqasida opera janri” deb nomlangan 4-dars mavzusi R.Glier va T.Sodiqovlarning ”Layli va Majnun”, R.Hamroevlarning ”Zulmatdan ziyo”, S.Boboevning ”Hamza”, ”Fidoiylar”, H.Rahimovning ”Zafar”, I.Hamroevning ”Oyjamol” , I.Akbarovning ”Sug’d elining qoploni”, M. Burxonovning ’Alisher Navoiy”, S.Jalilning ”Zebuniso”, M.Bafoevning ”Umar Hayyom” kabi asarlari o’zbek operalariga bag’ishlangan.

O’qituvchi o’quvchilarga opera san’ati haqida ma’lumotlar berib, ularning yuksak opera asarlari bilan tanishtirar ekan, avvalo, opera janrining o’ziga xos xususiyatlari, muallifi, bu asar yaratilgan davr, asarning mazmuni haqida ixchamgina hikoya qilib berishi lozim. Tinglash uchun tavsiya etilgan opera parchalari, asosan muqaddima(uvertyura) va ariyalar bo’lishi ma’qul. Chunki uvertyura simfonik opkestr ijrosidagi sof cholg’u musiqa bo’lishiga qaramay, u operaning asosiy musiqiy materialidan qisqartirib olinadi va tinglovchiga asar haqida nisbatan yaxlitroq tasavvur paydo qiladi. Masalan o’quvchilarni S.Yudakovning ” Maysaraning ishi” operasi bilan tanishtirishda o’qituvchi operaning librettosi (so’z matni) S.Abdulla va M.Muhamedovlar tomonidan Hamzaning shu nomdagi asari asosida yaratilganligi, asarda aql-zakovatli, bama’ni va axloqi pok beva ayol Maysara puxta o’ylangan reja yordamida ochko’z qozi, badjahil mirshab Hoji Darg’a, axloqan buzuq qonunchi Hidoyatxonlarni laqillatganligi shahvatparastlarning zaif yurak torlarida o’ynab o’ta nopqulay vaziyatlarga solib, ularni xalq oldida kulgiga qoldirganligi va shu yo’l bilan yosh sevishganlar- jiyani Cho’ponali va uning sevgilisi Oyxonning baxtini saqlab qolganligini hikoya qilib beradi.

Mustaqillikdan so`hg, ayniqsa yosh opera xonandalari uchun ko'p tomonlama imkoniyatlar berila boshlandi. Prezidentimiz tomonidan yosh iste'dodlar uchun ta'sis etilgan " Nihol" davlat mukofoti yoshlar uchun eng yuksak e'tibor hisoblanadi. Bundan tashqari, Nazira Ahmedova, Sulaymon Yudakov nomidagi ko'plab katta-yu kichik ko'rik tanlovlar yosh xonandalarni turli sinovlardan o'tkazib kelmoqda.

Opera xonandalari uchun eng zarurr hisoblanuvchi ovoz kuchi, yashaydigan iqlim muhitiga ham bog'liqdir. O'z ijodiy kuzatishlarimiz natijasida shunga amin bo'ldikki, O'rta Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida yashab ijod qilayotgan va ulg'ayayotgan yosh avlod kuchli va baquvvat, keng diapazon, chiroyli tembr va aql-zakovat bilan yuksalmoqda. Eng asosiysi yosh xonandalarning har biri o'ziga xos ovoz sohibi.

Hozirgi yosh opera xonanadalari orasida dunyo sahnalarida o'z iste'dodlarini namoyish etib kelayotganlari ham kam emas.Ramiz Usmonov, Abdumalik Abduqayumov, Najmiddin Mavlyanov, Jenisbek Piyazov, Samandar Alimov, Rahim Mirzakamolov va bir qancha yosh ijodkorlar xalqaro ko'rik tanlovlar g'olibi va davlat mukofoti sovrindorelari hisoblanadilar.

Xalqimizda "Ustozsiz shogird har maqomda yo'rg'alar" degan maqol bor. Har bir kasbni o'rganish tarixi bo'lgani kabi opera san'atining ham o'z maktabi bor. Dunyo bo'ylab eng ko'p tarqalgan italiya , fransuz, nemis va rus maktablari bo'lib, jahon opera yulduzlari mana shunday maktablarni mukammal o'rganganlar. Shuning uchun ham dunyo sahnalari ular uchun muntazirdir.

Bizning yosh opera xonandalarimiz uchun ham mana shunday maktablar zarur. Bunday maktablarni egallashda eng avvalo yosh xonandalarni opera vatani bo'lmish Italiya, bundan tashqari, Fransiya va Germaniya kabi shaxarlarga opera maktabini olib kelish uchun grantlar berilsa, yoshlar istedodi yanada oshgan bo'lar edi.Grant asosida o'qiyotgan talaba, opera maktabini, ya'ni asarni kuylash usullari, kuylash davomida asarning asl ma'nosini tinglovchiga yetkazib bera olish, asarnign ichki his tuyg'ularini ko'rsatib berish kabi bilimlarni puxta o'rganib kelinishi va yosh xonandalarga o'rgatilishi O'zbekistonda opera san'atiga juda

katta rivoj bergan bo'lar edi. Lekin bunga qaramay, biz o'z milliy opera maktabimizni rivojlantirmog'imiz darkor. Ustozlarimiz Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashevlar o'zbek tilida yaratilgan opera , romans, xalq qo'shiqlarini mahorat bilan ijro etib, milliy maktabga asos solganlar. Ularning ijrolari ikki buyuk yo'nalishni o'z ichiga olgan, o'zbek ashulachilik an'analari va vokal ijro yo'li. Mana shu ikki yo'nalish birligidagi ijroyo'li opera maktabini asoslab beradi. O'zbek operalarini butun jahonga tanitish uchun ham milliy maktabimizni puxta o'zlashtirmog'imiz kerak. Buning uchun milliy musiqa boyligimiz bo'lmush katta ashula va maqomlar ijrosiga e'tibor berishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi yoshlarni jahon xalqlari musiqa san'atida yetakchi o'rinlardan birini egallagan akademik vokal san'ati bilan tanishtirish va bu san'atning go'zal musiqiy xususiyatlaridan bahramand qilishning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

## I.2. O`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san'atining roli

Pedagog o`quvchining ovoz xususiyatlarini uning ijrochilik usulidan ajrata bilish kerak. Ovoz turini aniqlashda tembr, diapazon, registr tuzilishining xususiyatlari, markaziy tovushlar, tessiturani ushlay bilish qobiliyati, hamda fiziologik –anatomik belgilar (Ovoz bog'lamlarining uzunligi va zichligi, rezonator tizimlari va boshqalar), xronaksimmetriya kabi qator alomatlar hisobga olinishi kerak.

Tajribali vokal o`qituvchisi o`quvchining ovoz tembridan ko`p narsani bilib oladi. Bu shaxsiy akustik xususiyat turli tessituralarda sinchiklab tekshirilishi lozim.Tembrning eng yaxshi sifatlarini eshitish uchun bir asarni yondosh tonalliklarga ko`chirib ijro etish mumkin.

Diapazon ham ovoz turini aniqlovchi belgilardan biridir. Biroq u o`quvchida doim ham to`la hajmda ifodalanmasligi mumkin. Ko`pincha u chegaralangan bo`ladi. Ba'zi hollarda uchraydigan "metso soprano" va "soprano" tonlarini o`z ichiga olgan, nihoyatda keng diapazon ham foyda bermaydi. Ovozni to`g`ri tasnif qilishda registr tuzilishini o'rganish yordamchi vositadir.

Yangrashi chiroyli bo`lgan o'tish va markaziy tonlarning joylashishi ham ovozni to`g`ri aniqlashda ko`mak bo`la oladi.Vokalistlarda o`ziga xos quyidagi o`tish tonlari mavjud: Tenor mi – fa – fa – diez birinchi oktava. Bariton re – mi – bemol – si kichik oktava do - do diez birinchi oktava.Soprano mi – fa – fa – diez ikkinchi oktava.Metso soprano do diez – re – diez ikkinchi oktava

U yoki bu tessiturani ushlab turish qobiliyati ma'lum darajada o`quvchining ovoz diapazoni qanday ekanligigiga bog`liq. Diapazonning cheklanganligi o`quvchining tessitura imkoniyatlarini ham cheklab qo`yadi. Shunday bo`lsada ularni o`rganish ovoz tipini aniqlashda katta yordam beradi. Ovozning fiziologik, anatomik belgilari va xronaksimmetriya yordamchi omil vazifasini o`tashi

mumkin.Ovoz turi va ovoz bog`lamlarining uzunligi munosabatlarida ma'lum qonuniyatlar mavjud: Ovoz turi qanchalik yuqori bo`lsa, ovoz bog`lamlari shunchalik qisqa va nozik bo'ladi.

Bolalar ovozining turlari. Soprano – (diskant) - yuqori ovoz, yengil, o`zgaruvchan yumshoq yangraydi. Katta ta'sir kuchiga ega **(**do – birinchi oktava, fa, sol- ikkichi oktava).

Alt- bolalar pastki ovozi- kuchli va birmuncha yo`g`on jarangdor tembrga ega. (sol, lya- kichik oktava, re – mi ikkinchi oktava)

Ta'lim jarayonida ovoz turlarini, uning hajmini, kengligini aniqlash orqali ovoz xarakteriga mos bo`lgan vokal mashqlari hamda qo`shiqlar kuylatib boriladi, bu esa ovoz hajmi kengligini chiroyli, rang-barang tembrda va jarangdor bo`lishiga imkon yaratadi.

Bo`lajak vokal o`qituvchilari yuqorida aytib o`tgan ovoz turlari, ovoz hajmi kengliklarini o'rgangan holda, qo`shiqlarni yoqimli, dilrabo ohanglarda kuylay olishi uchun vokal uslubiyotini kasbiy ko'nikmalarini puxta o`zlashtirishi zarur deb bilamiz.

O'qituvchi o'quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal pedagogikasi uslublaridan keng foydalanishi lozim. Ashula aytishning o'ziga xos tomonlari bilan bog'liq o'z qiyinchiliklari ham yo'q emas. Xonandaning ovozi o'ziga xos "musiqa asbobi" hisoblanadi. Biroq, kuylashdan oldin tinglay bilish ham kerak. Tinglaganga ham ayrim musiqa tovushlarini yoki ohangni tashkil etuvchi tovushlarning ketma – ketligini aniq yetkazib bera oladigan darajada eshita bilish kerak.

O'z-o'zidan ma'lumki, ashula aytish uchun o'quvchiga avvalo tabiiy musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira va aniq ifodalay bilish qobiliyati bo'lishi zarur. O'quv yilining boshida bolalardagi ana shu fazilatlardan kelib chiqib, alohida reja tuziladi. Yakka qo'shiq o'rgatishda faqat yaxshi va a'lo darajada musiqiy qobiliyat hamda sog'lom ovozga ega bo'lgan o'quvchilargina tanlab olinadi. Biroq, tajriba shuni ko'rsatadiki, o'rtacha musiqiy qobiliyatga ega bo'lganlar ham uslubiy jihatdan to'g'ri va muntazam olib boriladigan mashg'ulotlar davomida musiqiy

qobiliyatga ega bo‘lganlar ham uslubiy musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirib boriladi.

Eshitish, xotira xususiyatlari rivojlanadi va aniq ifoda etish o‘zlashtiriladi. Oldindan tayyorlangan kuy namunalari musiqiy parchalar vositasida har bir o‘quvchining musiqiy va ashula aytish qobiliyatini sinab ko‘rish mumkin. (La, la, la, na, na,na yoki pam,pam,pam). Masalan: O‘quvchi usulni ilg‘ab olish darajasini esa, murakkabligi jihatidan turlicha bo‘lgan usullar bilan sinab ko‘riladi. Masalan: o‘qituvchi tomonidan ovozga yoki cholg‘uda chalingan ohangning usulini kaftlarini bir – biriga urish yoki qalamni stolga urish bilan bajarishi mumkin. Agar stolga usul to‘g‘ri takrorlansa, so‘ng murakkabroq usul orqali sinab ko‘rish kerak. O‘quvchilarning musiqiy xotirasi kuylardan parchalarni ketma-ket takrorlash vositasida tekshiriladi. Kuylashning qanchalik qiyin yoki oson bo‘lishi uning yoshiga bog‘liq. O‘rta va katta yoshdagi bolalar uchun esa, bir muncha murakkab kuylar tanlanadi. Shundan so‘ng, o‘quvchining ovoz imkoniyatlarini tekshirishga o‘tish mumkin.

Ovoz diapazoni ayrim qo‘shiqlar, mashqlarni turlicha, ya’ni yuqori va quyi pardalarda kuylatib tekshiriladi, ovoz diapazonining yuqori va quyi tovush nuqtalari aniqlanadi. Bunda avvalo o‘quvchining ashula ayta olish qobiliyati aniqlanadi. Agar diapazonda quyi va yuqori tovushlar bo‘lib, o‘rta tovushga ega bo‘lsa, bunday ovozni alt (past ovoz) deb belgilansa, maqsadga muvofiq.

Diapazoni kuchli ovozning qaysi partiyaga mansubligi quyidagicha aniqlanadi. Agarda diapazonda quyi tovushlar kuchli bo‘lsa alt, yuqori tovushlar kuchli bo‘lsa diskant (yuqori ovoz) deb belgilanadi.

Yakkaxon qo‘shiqchi ijrosining ovozinining sifatiga, ijrochilik mahoratiga bog‘liq. O‘smirlarning (11-18 yosh) organizmida ularning butun hayotiy faoliyatlariga ta’sir etuvchi katta anatomik-fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Uning ovoz apparatida ham murakkab jarayonlar yuz beradi. Ovoz apparatining shakli bola organizmidagi alohida a’zolarning o‘sishi bilan bog‘liq. Ayniqsa, bunday hol o‘g‘il bolalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning ovoz bog‘lamlari

uzunasiga kengayadi, eniga esa, odatda o‘zgarmaydi. Bo‘g‘iz tez o‘sadi. Ayni paytda hiqildoq ostining o‘smay qolish hollari ham tez-tez uchrab turadi. Bunday hollarning paydo bo‘lishi, nafas olish orgnalari va bo‘g‘iz faoliyatining buzilishi bilan bog‘liqdir.

Shunday hodisalarni qiz bolalarda ham kuzatish mumkin. Lekin, o‘g‘il bolalarda bo‘lganidek aniq shaklda emas. Mutatsiya davrining xarakterli tomonlaridan hisoblangan bo‘g‘izning tez o‘sishi, ovoz rivojlanishidagi birmuncha murakkab va havfli payt hisoblanadi. Ovoz apparati 15 yoshdan 18 yoshgacha sekinlik bilan shakllanib boradi. 19 yoshda uning rivojlanishi asosan to‘xtaydi. 11 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan butun davrni 3 ta bosqichga ajratish mumkin.

1.11-13 yosh balog‘atgayetish arafasi ovoz apparatida hech qanday katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi.

2.13-15 yosh mutatsiya davri (balog‘at yoshining boshlanishi)

3.15-18 yosh balog‘atga yetish bo‘g‘iz va butun ovoz apparatirivojlangan vashakllangan bosqich.

Bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni xor rahbari yaxshi bilishi lozim. Bolalar organizmi favqulotda xilma-xil rivojlanadi. Mutatsiya davrida u yoki bu alomatlarni paydo bo‘lish muddatlari ham turlicha. Shu tufayli xor jamoasida har bir bolaga alohida munosabatda bo‘lish lozim. Mutatsiya davrining yaqinlashib qolganini aniqlash juda qiyin. Odamda mutatsiya arafasida bolaning ovozi sezilarli ravishda tiniqlashadi, kuchga to‘ladi. Biroq, bola tez orada avval osonlik bilan ijro etgan diapazonning yuqori tovushlarini endilikda zo‘riqish bilan aytadigan bo‘lib qoladi. Ular tez-tez ohangni buzib noto‘g‘ri ashula ayta boshlaydi. Ovoz birxilliligi, yoqimliligi, jarangdorligi yo‘qoladi. Ovoz diapazonida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Qizlarda bir-ikki pardaga pasayadi. O‘g‘il bolalarda esa, bir oktava va undan ko‘p darajada pasayadi. Bo‘g‘izning yallig‘lanishi shilliq moddasining ko‘payishi nafas olish funksiyasining buzilishi, ba’zan ovozning yo‘qolishiga olib keladi. Bu ayniqsa, o‘g‘il bolalar uchun xos bo‘lsada, lekin qiz bolalarda ham kam bo‘lsada uchrab turadi. Mutatsiya davri o‘g‘il bolalarda 6-9 oydan, 2-3 yilgacha davom etadi. Qiz bolalarda uzoq vaqt

davom etmasada, 15-16 yoshda takrorlanishi, yoki shu yoshda birinchi marta boshlanishi mumkin.

Mutatsiya arafasida muntazam ashula aytish bilan shug'ullanish ovozning bir muncha silliq, bir muncha tekis o'rganishiga va hatto mutatsiya davrida ham ashula aytaverish imkonini beradi. Mabodo mutatsiya o'tkir holatda namoyon bo'lsa ma'lum davrgacha mashg'ulotni to'xtatib turishga to'g'ri keladi. Mutatsiya davrida shifokor – foniatorga murojaat qilish juda muhim.

Bu davrda vokal mashg'ulotlarining vaqtini qisqartirib, baland tovushda kuylatishni bir oz kamaytirishga to'g'ri keladi. Toliqishning birinchi alomatlari ko'zga tashlanganda mashg'ulotni to'htatish kerak bo'ladi.

Bularni musiqa o'qituvchisi bilishi va bolalarga ham tayinlashi zarur. Mabodo, mutatsiya davrida ashula aytish butunlay to'xtatib qo'yilsa, tovush chiqaruvchi organlarda yo'lga qo'yilgan kordenatsiyalarning yo'qolishiga olib keladi. Aksincha, muntazam ravishda chegaralangan vaqtda ashula aytish davom ettirilsa, anashu kordinatsiyalar saqlanib qoladi va mustahkamlanadi.

O'g'il bolalar mutatsiya davrida ashula aytish bilan muntazam shug'ullanib borsalar, mutatsiya silliq va sezilmay o'tishi mumkin. Ular ovozini yetarli darajada boshqarib, o'zlariga qulay tovushlarni tanlab kuylashlari mumkin. Odamda bunday vaqtda diskant alt ovoziga yozilgan qo'shiqlarni kuylash maqsadga muvofiq keladi. Muntazam ravishda olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida ovoz bog'lamlarining o'sishi, tekis bo'lsada, diapazonning kengaytirishda ehtiyot bo'lish lozim.

O'smir yoshdagi bolalarning diapazoni: saprano, diskantlar, birinchi oktavadagi do-re notalaridan, ikkinchi oktavaning fa-sol tessiturasi baland, agar past tovushlar ko'p uchrasa, asarning tessiturasi past hisoblanadi. Asarning past yoki baland tessiturasida ijro etish sun'iy kuylashga olib keladi, bu esa bola ovoziga salbiy etadi. Ana shuning uchun ham o'qituvchi asar tanlaganda, tessitura qulayliklarini nazarda tutmog'i kerak. O'smir yoshda o'g'il bolalarda ham, qiz bolalarda ham tovush chiqarish mexanizmining farqi aniq bilinadi. Qiz bolalarda diapazonning asosiy qismini markaziy registr tashkil etadi. Shu registr tabiatan aralash tovush

chiqarishga moslashgan. Sof ko‘krak va yuqori sado faqat chetki notalardagina tinglanadi. O‘g‘il bolalarda esa, aralash sado sun’iy yo‘l bilan chiqariladi. Shu tufayli ham o‘g‘il bolalar cheklangan diapazonga ega bo‘lishadi. Chunki, ashula aytish paytida ko‘proq ko‘krak registridan foydalanishadi. Asosiy va aralash registrdan tovush chiqarishni o‘rganib olishgandan keyingina ular o‘z diapazonlarini kengaytiradilar.

Qiz bola ovozi tabiatan markaziy (o‘rta) registrga ega bo‘ladi. Bunday hol ovoz diapazonining barcha notalarini tekis chiqishiga imkon beradi.

O‘g‘il bolalarda bunday registrda kuylash birmuncha murakkabdir. Bu borada o‘ziga xos turli ovoz mashqlari bilan o‘g‘il bolalarda ham shu zaylda ko‘nikma hosil qilish mumkin.

Bolalar ovozini tarbiyalashda aralash ovoz turini takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu ovozning mayin chiqishiga registrdan – registrga o‘tishni osonlashtirishga, diapazonining barcha notalarida bir tekisda kuylashga imkon beradi.

Yuqori ovozli qiz bolalarda past registrdan – o‘rta registrga o‘tish notasi 1- oktavaning mi-fa-fa diyez notalari hisoblanadi. O‘rta registrdan – bosh registga o‘tish notasi esa, 2 – oktavaning fa-fa diyez pardalari hisoblanadi. Past ovozlarda esa, o‘tish notalari 1-oktavaning pardalari o‘rta registrdan bosh registrga o‘tish notalari 2- oktavaning do-re pardalari hisoblanadi. O‘g‘il bolalarda 2 ta registr bo‘lganligi tufayli bosh sadolariga olib boruvchi tovushlar o‘tish notalari hisoblanadi. Masalan: disskantlarda 2-oktavaning mi-fa-fa diyez pardalari altlarda esa, 2-oktavaning do-re pardalari hisoblanadi.

O‘smir yoshdagi bolalarda ko‘krak registridan o‘z o‘rnida foydalanish lozimligini o‘qituvchi yaxshi bilishi kerak. Chunki, ko‘krak registriga kiradigan ovozdan ortiqcha foydalanilganda bola ovozini baqiroq qilib qo‘yishi mumkin. Ovoz kuchli diapazon bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Diapazonning turli qismlaridan ma’lum bir ovoz kuchliligini talab qilish mumkin. Aks holda ovozga qattiq zarar yetishi mumkin.Bola ovozining kuchli tiklanish davrida baland

bo‘lmaydi. Zero, buning unchalik ahamiyati ham yo‘q. Bola ovozining go‘zalligi, uning jarangdorligi, yengilligi soddaligida. Ovozning tabiiy kuchi yordamida jarangdorlikda sadolarning jozibadorligida, yoqimliligiga erisha borib, bu bilan o‘qituvchi bola ovozining rivojlanishini ta’minlaydi. Bola ovozining eng baland sadosiga o‘rtacha kuch bilan erishadi. Ovoz jarangdorligi ko‘p hollarda tembrga (ovoz tusi va chiroyliligiga) bog‘liq bo‘ladi. O‘smir yoshda olib boriladigan muntazam va to‘g‘ri ashula aytish jarayonida tembr o‘sha ovozning o‘zigagina xos bo‘lgan sifatlarga ega bo‘lib boradi.

Tembrni to‘g‘ri tarbiyalash, ayni paytda bolalarni diapazonining turli qismlarida unli harflarni to‘g‘ri va jarangdor ijro etishga o‘rgatish demakdir.
Tembr ovozining o‘ziga xos bebaho xususiyati uni tarbiyalash va shakllantirish. Tembr sifatiga ikki yo‘l bilan ta’sir etiladi.

Birinchisi: registr (ko‘krak va bosh registr)larini almashtira borib va ovoz pardalarini o‘zgartira borish orqali; Ikkinchisi: ovozni kuchaytiruvchi bo‘shliq (hiqildoq, og‘iz)hajmini o`zgartirish yo`li bilan ta’sir etish mumkin.

## II.BOB:Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ovozini tarbiyalashda vokal san'ati uslublaridan foydalanish

### II.1.Umumta'lim maktablarida qo`shiqchilik faoliyati samaradorligini oshirish yo`llari

Vokal malakalari musiqa madaniyati darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jamoa bo`lib kuylash mashg`ulotlarida o`quvchilarning diqqat-e`tibori ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o`rgangan qo`shiqlarini ijro etganda zavqlanish hissi paydo bo`ladi. Qo`shiq kuylaganda ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do`stona jamoaga birlashadi.

Vokal malakalari yordamida qo`shiqni so`z ma`nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o`rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal malakalarini shakllantirib borish va jamoa bo`lib kuylaganda bunga qat`iy rioya qilish shart. Chunki aynan vokal malakari, vositasi bilangina yoqimli jarangdorlikka erishish mumkin. Vokal malakalari 6 turga bo`linadi.

1. Darsda qo`shiq kuylatish holati;
2. Ashulachilik nafasi;
3. Ovoz hosil qilish;
4. Sozlanish;
5. Ansambl;
6. Talaffuz;

1.Qo`shiq kuylash. Qo`shiq kuylash holati deganda darsda o`quvchilarning o`tirish va turish holati nazarda tutiladi. O`tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo`l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o`quvchilarga tushintirish va doimo nazorat qilish, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan, to`g`ri turish, o`tirib kuylaganda parta suyanchig`iga suyanmasdan, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko`tarmasdan, bo`yin va boshni to`g`ri ushlash, qo`llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga

yengil qo`yib, engashmasdan o`tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2.Nafas olish yo`llari. Xonanda kuylash vaqtida, ya`ni tovush hosil qilishda nafasni to`g`ri (ishga) yo`lga qo`yishi muhim ro`l o`ynaydi. "Kuylash san`ati – nafasni to`g`ri ishga solish san`atidir" – degan ibora klassik ibora hisoblanadi.

Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma`lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmga va ma`lum bir vaqt oralig`ida sodir bo`ladi. Kuylash vaqtidagi nafas olish tez, qisqa vaqt oralig`ida sodir bo`lib, nafas chiqarish esa, bir qancha vaqtga cho`ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar harakteriga fiziologik nafasga qaraganda chuqurroq nafas olinadi.

Kuylashda nafas olishning bir qancha turlari mavjud.

1.Pastki qovurg`a kengayuvchi nafas olish;

2.Yelka kengayuvchi nafas olish;

3.Qorin bilan nafas olish;

4.Ko`krak bilan nafas olish;

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg`alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma`quldir. Diafragma- odam organizmida ko`krak va qorin bo`shlig`ini ajratib turadi. Pastki qovurg`alar va diafragma vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi.

Bu qanday sodir bo`ladi?

Xonanda xuddi gul hidlagandek nafas oladi. Bunda o`pkalar kengayib, pastki qovurg`alarni tashqi tomonga suradi va diafragma pasayadi. Natijada qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Bu holda yelka va ko`krakning yuqori qismi o`zgarmaydi. Nafas chiqarish tejamli, uzoq muddatli, tekis bo`lishi shart. Nafas chiqarish qorin tarang qobig`ining harakati bilan boshqariladi va havo yuqoriga yo`naladi. Natijada ovoz pardalarini tebranishiga undaydi. Pastki qovurg`alar va diafragma asta –sekin o`z qobig`iga qaytadi.

3.Tovush hosil qilish. Yuqorida aytilganidek, tovush nafas va ovoz pardalarining harakati natijasida hosil bo`ladi. Tovush havoning yopiq holatdagi

ovoz teshigi orqali o`tganda, ovoz pardalari tebranishi vaqtida yuzaga keladi. Tovushning paydo bo`lish vaqti “Tovush hujumi” deyiladi. Ovoz pardalarining kuchi va harakteriga qarab tovush hujumi qattiq, mayin va nafas olishdan keyingi hujum bo`lishi mumkin. Tovushning yumshoq hujumida ovoz pardalari nafas chiqarish boshlanishi bilan ochiladi. Bu holda chiqayotgan havo katta bosim bilan ovoz pardalariga kelib uriladi. Nafas olishdan keyingi hujumda esa, ovoz pardalari nafas chiqa boshlagandan keyin birikadi. Natijada tovushdan oldin nafas chiqarishda unsiz “X” eshitiladi. Qo`shimcha tovushlar hisobiga tovush o`zining sofligini yo`qotadi.

Ovoz pardalari bo`shashib qoladi. Xonandalar amalda tovush hujumining hamma turlarini bilishi kerak. Lekin, ma`quli “yumshoq tovush hujumi” hisoblanadi.

4.Sozlanish. Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o`z ovozini unga moslab kuylashi sozlanish degan ma`noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish ma`lum balandlikdagi tovushni aniq intanatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo`lib hisoblanadi. Chunki boshlang`ich sinfdagi vokal ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylashda) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish olib boriladi. Ayniqsa, musiqa o`quvi sust rivojlanayotgan bolalarga e`tabor kuchaytiriladi. Ularni o`qituvchi ovoziga cholg`u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va iqtidorli bolalar ovoziga qo`shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya`ni tenglashtirishga da`vat etadi va intanatsion sof sozga erishadi va bir xil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

5.Ansambl. Ansambl fransuzcha so`z bo`lib, birgalikda degan ma`noni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura san`atlarining qonuniyatlarining birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: O`zbek xalqi cholg`u asboblari, raqs asboblari, vokal ansambl va boshqalar. Ansambl hususiy va umumiy turlarga bo`linadi. Jamoa bo`lib kuylaganda barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib,

hammabir kuyda ansambl bo`lib, ikki yoki uch ovozda kuylashi umumiy ansambl deyiladi.

Har bir ovozni alohida –alohida sozi va ansambli hususiy ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg`unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo`yilgan sof unisonga erishish mumkin.

6.Talaffuz. Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag`) ning faol hamjihatligi, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e`tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda ish olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim. Nafasni to`gri olib, jumlani oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho`zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o`rgatib borish talab etiladi. Bunda og`iz shaklini, tilni harakatlariga, o`zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo`shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o`rgatib borish lozim.

7**.** Vokal mashqlari.

Mashqlar shoshilmasdan, cho`ziq, bir nafasda ijro etiladi. Oxirigi tovush janjirsimon nafasda cho`zilib turiladi va o`qituvchi ishorasiga qarab to`xtatiladi.

1.Turli unli tovushlardan iborat bo`g`inlar bir xil va yuqori pozitsiyada jaranglashini kuzatish lozim.




2.Bir tovushdan musiqiy talaffuzning aniqligini yaxshilash uchun mo`ljallangan mashqlar tovushni cho`ziqligi va yengilligini ta`min etadi.



3.Zanjirsimon nafas olish usulini paydo qilish uchun mashqlar. Mashqlar yopiq va turlicha unli tovushlar bilan bajariladi. O`qituvchi o`z istagi bilan tovush kuchini o`zgartirishi mumkin. Masalan:




4.Keng nafasni rivojlantirish mashqlarini yumshatish “i”, “ya” harflari kabi unlilarni to`g`ri shakllanishi uchun mashqlar



5.Keng nafasni rivojlantirish uchun mashqlar.

Do major gammasini yuqoridan pastga ijro etish. Asosi “Do” toni yangi tovush bilan almashtirish, o`qituvchiga yuqori pazitsiyadagi ko`nikmalarni o`rgatishda yordam beradi. Yuqori tovush o`z navbatida past tovush singari bir nafasda ijro etilmaydi. Bu o`rinda pastki registrdan tovushni yuqori pazitsiyada musiqiy talaffuz bilan ijro etish kerak. Bunda quyi pardani yuqori pazitsiyada ijro etish bilan ta`minlanadi. Quyida berilgan mashqni yarim ton, yarim ton ko`tarib, ovozni yuqori pardalarda ham chiroyli jaranlashiga erishiladi.



6.Kuylash vaqtida <va> ko`nikmalarining almashuvi xonandalar ovozining ravonligi, harakatchanligi va epchilligini uyg`unlashuviga yordam beradi. Sakkiztalik notalarni staccato ko`nikmalari bilan ijro etganda nafas tekis bo`lishi lozim.




7.Keng nafasni rivojlantirish va musiqiy talaffuzining sofligini yaxshilash uchun mashqlar. Ikki qismdan iborat mashq. Ma, Me, Mi, va Mi, Mo, Mu bir nafasda ijro etiladi.




Du,du,du,du,du,du,du,du,du mashqi ham o`quvchilar talaffuzini aniq va burro qilish uchun kuylatiladi. Mashqni avvalo sekin tempda ijro etish kerak. Qachonki, ijro mustaqil bo`lganda, tempni asta-sekin quvnoq tempga o`tkazish mumkin. Mashq ijrosi o`quvchilar ovozining yengil bo`lishiga, musiqiy talaffuzning aniq va burro bo`lishi, notalarni staccato uslubida bir nafasda ijro etishni talab etadi. Quyidagi mashqni nimchorak pauzalarga rioya qilib aytamiz.

8.Musiqiy talaffuzni rivojlantirish uchun mashqlar.




9.Tovush hajmini kengaytirish uchun mashqlar. Bu mashq bir nafasda yuqori holatda ijro etiladi. Mashqni yarim tondan ko`tarib kulminatsion nuqtalarda ovoz jarangiga erishiladi.



10. Artikulyatsiya apparatining mushaklarini bo`shatish va xonanda lablarining  faoliyatini oshirish uchun mashqlar.



11. Oxirgi mashqimiz o`zbek xalq qo`shig`i “Chittigul”ni ikki ovozga bo`linib aytishga harakat qilamiz




Xulosa qilib aytadigan bo`lsak ovoz sozlash mashqlari o`quvchilar ovozini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo`lib, ta’lim samaradorligini oshirishda yaqindan yordam beradi. Yaxshi yo`lga qo`yilgan tovush temirsado bo`lib, har qanday katta hajmdagi asarlarni kuylaganda ham o`z jarangini va kuchini hech qachon yo`qotmaydi. Biz murabbiylar yosh avlod ovozini yo`lga qo`yishda ancha kuch sarflab mehnat qilishimiz lozim.

## II. 2 5-7 sinf o`quvchilariga vokal san'atini o`rgatish uslublari

Maktab o`quvchilarining 5-7 sinflarda o`qigan davri hayotining eng qiziqarli, ya'ni bolalikdan o`smirlikka o`tish davri hisoblanadi.

5-7 sinf o'quvchilarini 12-15 yoshdagi o'smirlik davri psixologiyasi o'zining jo'shqin rivojlanish, xulq atvorida keskin o'zgarishlar yuz berishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham psixolog olimlar bu davrni o'tish davri ya'ni bolalikdan kattalar safi tomon ulg'ayib borish davri deb hisoblaydilar.

Musiqa o'qituvchisi bu yoshlardagi o'quvchilar bilan ish yuritishda, muloqotda ular bilan musiqa mashg'ulotlarini olib borishda va ayniqsa, ularni kuylatishda bu psixalogik o'zgarishni hisobga olishi tavsiya etiladi.

O'smirlarda yosh o'tishi bilan yangi-yangi hussiyotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ular jismoniy jihatdan tez rivojlana boshlaydilar va bu o'sish ularning hayotda o'z- o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlab boradi va u shaxs o'z -o'zini anglay boshlaydi, axloqiy tushunchalar haqida mustaqil fikr yurita boshlaydilar.

Musiqa vositasining eng muhim jihati ham shundaki, u barcha organizmdagi o'sish jarayonini boshqaruvchan bosh miya yarim sharlari faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Musiqa sadolari yarim sharlarida joylashgan asab to'qimalarining tub-tubida joylashgan boy energiya zahirasida o'z ta'sirini o'tkaza oladi va o'smirlarni his hayajonga sola olish imkoniga ega bo'ladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashlaricha, bu zahira qatlamlariga faqat musiqa vositasida ta'sir etish mumkin. Asab hujayralari va ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi neyronlar mantiqiy, abstrakt va umumlashgan tafakkuz jarayonini keltirib chiqaradi.

Ayni paytda po'st va po'st usti zahiralarini o'rta darajada harakatga keltirish oqibatida paydo bo'ladigan jizzakillik, o'zi bilarmonlik va qo'polliklarini tormozlashtirib ularni mo'tadil holatga keltira olishga ham alohida etibor berib borish tavsiya etiladi.

Shuni hisobga olish kerakki, qo'zg'alish protseslari tez sodir bo'lganidek u tezda o'tib ham ketadi. Bu jarayon anchagina murakkab jarayon bo'lib, u yosh o'tishi bilan mo``tadil holatga keladi. Asabiylik holatida yo'l qo'ygan kamchiliklaridan o`zlari keyinchalik uyalib ham yuradilar.

O'smirlarda suyak va muskullarining o'sishida farq sezila boshlaydi, gavda suyaklarining yiriklashuvi natijasida o'smirlarning harakatlanish tezligi susaya boradi. Ular qo`polroq harakat qiladilar. Chaqqonlikni ma'lum darajada yo'qotadilar.

O'smirlik yoshida o'pkaning hajmi anchagina kengayadi va natijada nafas olish tezlashadi. Barcha harakarlarni bajarish va ayniqsa, qo'shiq kuylash jarayonida bunga alohida etibor berish zarur bo'ladi. O'ta darajada katta organizmi cho'zib, nafasni tiqiltirib qo'yish o'smirlar uchun zarurdir.

Yurak faoliyatining intensiv tezlashuvi ham ularni toliqtirib qo'yishi mumkin.

O'smir yoshlarda yuz beradigan o'zgarishlarning eng muhimi, bu ularda mutatsiya holatining yuz berishidan iboratdir. O'smirlik yoshida bo'ladigan o'zgarishlar ularning ovoz paylariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ovoz paylari va ovoz pardalari bu o'g'il bolalarda ikki hissa bo'ladi. Ma'lumki, torlar qanchalik uzun bo'lsa, undan shunchalik past ovoz hosil bo'ladi.Ovoz paylarining ikki hissa o'sishi ham ularning ovozlarini ikki hissa pasaytirishga olib keladi. Ovoz pardalarining yo'g'onlashib borishi ham ulardagi ingichka nafis ovoz o'rniga qo'pol, yo'g'on ovozning paydo bo'lishiga olib keladi.

Mutatsiya bu ovozning bir turdan –ikkinchi turga o`tish jarayonidir. Endi o'g'il bolalarning ovozida erkaklarga xos yo'g'on, qo'polroq ovoz hosil bo'ladi. Ammo u darrovgina yuz beradigan hodisa bo'lmay ikki-uch yil davomida ba'zan ingichkalashib, ba'zan yana yo'g'onlashib turadi. Yettinchi sinfning oxirlariga borib ovoz endi anchagina mustahkam, o'zining yangi holatiga o'tgan bo'ladi.

Qiz bolalarda mutatsiya davri deyarlik sezilmasdan o'tishi mumkin. Ularda ham ovoz paylari qisman uzayadi va ovoz pardalari yo'g'onlahsadi. Natijada, ilgari bolalarcha ovoz o'rnini endi katta qizlarga xos yo'g'onroq, kuchliroq ovoz egallaydi.

O'g'il bolalarda ham, qizlarda ham mutatsiyaning o'tayotganligini ularning hiqildoq atrofidagi paylarining, pardalarning qizarib qolishidan bilib olish mumkin.

Ayni shu o'smirlik yoshidagi o'quvchilarni, loringologlar tez-tez ko'rikdan o'tkazib turishlari tavsiya etiladi.

5-7 sinf o'quvchilarining ovozi musiqa o'qituvchisining ham qat'iy nazoratida bo'lishi kerak. Ayrim metodist o'qituvchilar qo’shiq  ayttirishni mutlaqo taqiqlab qo'yishni maslahat beradilar. Ammo bunga mutlaqo qo'shilib bo'lmaydi. Ularni doimiy nazorat ostida ushlab borish va zarur bo'lgan hollarda, loringolog maslahati bilan ularni kuylashdan  ozod qilishni tavsuya etiladi.

Musiqa o'qituvchisi o'smirlarning ovozlarini tekshirish jarayonida ham mutatsiyaning yuz berayotganligini hisobga olib borishlari lozim bo'ladi.O'g'il bolalarning ovozlarida bo'ladigan o'zgarishlarni kuzatib borish natijasida ularni ovoz diapazonlari endi katta oktava "lya"- "si" notasidan  to 1- oktava "mi"- "fa" notalarigacha bo'lgan oraliqni ola olishlari mumkinligini kuzatdik. Ayni paytda ularni differensial guruhlarga  ajratib olishni ham  tavsiya etadilar.

2 ovozdagi o'g'il bolalar katta oktava "lya" pardasidan 1-oktava "re" gacha bo'lgan oraliqda  kuylay olishlari aniqlandi.

1 ovozdagi o'g'il bolalar esa "do" kichik oktavadan "re" gacha bo'lgan oraliqda kuylay olishlari mumkin.

Qizlar ovozi esa deyarlik o'zgarmaganligi uchun, ilgarigiday skipka kalitida yozilaveradi va skripka va al't singari o'zgartirmasdan kuylanadi.

Soprano, partiyasining ovoz diapazoni "si" kichik oktavadan 2-oktava "fa" gacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi.

Al't partiyasi esa "lya" kichik oktavadan 2-oktavagacha bo'lgan oraliqda kuylaydi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki, ularning ovozlari hali yetilib, qotmagan bo'lganligi uchun o'ta darajadagi past va ayniqsa o'ta darajadagi baland tovushlarda kuylatmaslik lozim.

Shunday ovozlar ham borki, ularning ovoz diapazonlari 4-5 notadan nariga o'tmaydi. Dars jarayonida ular bilan alohida mashq olib borishning imkoniyati bo'lmasada, ular bilan  ba'zi-ba'zida alohida ish olib borish lozim bo'ladi.

Musiqa o'qituvchisining muhim ishlaridan biri barcha o'quvchilarga issiq va sovuq taomlarini iste'mol qilishdan saqlanish lozimligini maslahat berib borishdan iboratdir.

Yangi paydo bo'lgan ovozlarda haddan tashqari ko'p kuylash, qattiq baqirish ham ovozning buzilib qolishiga olib kelishi mumkin.

O`quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo`lgan qiziqishini o`stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to`g`ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta’limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg`or muallimlar tajribalarini o`rganish shuni ko`rsatadiki, darsni turli bosqichlarga bo`lib o`tish o`zini ijobiy natijalarini beradi.

1.O`quvchilarni darsga moslashtirishdan iborat bo`lib, o`quvchilarda xayrihohlik munosabatlarini hosil qilinishi, bajariladigan ishlar bilan tanishtirishni yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilashni ta’minlaydi.

2.O’quvchilarni bilim va malakalarini mustahkamlash bilan bog’liqdir. Bunda o’quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondashish ko`nikmalarini o`stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

3.Eshitish, idrok etishi orqali bilimlar darajasi aniqlanadi. Shu jarayonda o’quvchilarning idrok etish qobiliyatlari tekshirib ko`riladi. O’qunchilarni musiqa darsiga  moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e’tiborni qaratmoq lozim.

Darsning boshlanish qismida quvnoq sho`x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etilsa , bu musiqa o’quvchilarda ko’tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o`tishiga yordam beradi.        O`qituvchi tomonidan o’quvchilarda hosil bo’lgan bilim darajasini o’rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijod o`quvchilarni xotirasini aktivlashtiradi, fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik-fikrlash bilan birga emotsional aktivlikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O`quvchilarni ijodi  bu mustaqil faoliyat bilan bog`liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o`quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o’rganish va qiziqtirishda namoyon bo’ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash uch yo’nalishda kuzatiladi.

1.Hayotiy musiqiy taassuritlar bilan boyitishda. Masalan: Ertaklar, she’rlar, milliy an’analar, kitobdagi asar qahramonlari va musiqiy o`yinlarnio`tkazishda asosiy negizni yaratadilar.

2.Bu o’quvchilarni ijodiy harakat usullari bilan tanishtiradi. Bu maqsadda ularga sodda asarlar, qo`shiqlar, ritmik usullar bilan ohang talaffuzlari beriladi. Musiqiy ijod namunalaridan: Masalan, asarga ritmik kirish qismini yaratish ( O`rganiladigan qo`shiq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin bu ijodiy harakat qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.)

3.Bunda oldin o’qituvchi ko`rsatadi, keyin hamkorlikda qo`shiq tahlili va maqsadga yo`naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo`shiqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarni ifodasiga bog`liq bo’lgan asarlar orqali o`quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga egadir. Masalan: ohang kuylarining variantlarini yaratish uchun, o`quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarni mavjudligini tushunishi lozim ( she’r matni, musiqaning ritmik tuzilishi, ohang tuzilishi)

4.O`quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o`ynaydi. Buni bajarish ko’proq o’qituvchiga bog`liqdir. O`qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o`yin formasini qo`laydi. Topshiriqni bajarishda o`yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O`yin darsda emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo’lib, o’quvchilarda ijodiy yo’nalishlarini shakllantiradi.

**5- sinfda noan’anaviy bir soatlik dars ishlanmasi.**

Darsning mavzusi: ”Opera san’ati. O`zbek musiqasida opera janri.

Qo`shiq kuylash: ”Oyimlarday muloyim” F.Alimov musiqasi, Qambar Ota she’ri.

Musiqa savodi: 2/4 o`lchovida dirijyorlik qilib, notalarni nomini aytib kuylash.

Musiqa tinglash: Sulaymon Yudakovning ”Maysaraning ishi operasidan ”Cho`pon” va ”Oyxon” ariyalarini audio tasmasida eshittirish.

Darsning maqsadi:

Tarbiyaviy: O`quvchilarda opera ya’ni vokal san’atiga muhabbat uyg`otish.

Ta’limiy: O`quvchilarga notalarni nomini kuylab dirijyorlik qilishga o`rgatish.

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarni qo`shiq kuylash va operadan ariyalarni tinglatish orqali vokal san’atini idrok qilishga o`rgatish.

Darsni jihozlash: Reja konspekt, plakatlar, kartochkalar, CD disklar, tarqatma materiallar, magnit tasmalar.

Darsning turi: Aralash.

Darsning borishi.

O`quvchilar bilan salomlashib davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifani tekshirish uchun savollar beraman.

O`tgan darsda qanday qo`shiqni o`rganganmiz?

Bu qo`shiqni mualliflari kim, mazmuni kim haqida?

Musiqa savodidan qanday topshiriq berilgan?

Opera san’ati haqida qanday ma’lumotga egasiz?

So`ngra o`quvchilarga kuylash holatini eslatib, ularni ovozlarini sozlayman.

1.Artikul’yatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylataman.

2.Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylataman

3.Ikki ovozda kuylash uchun mashqlar kuylataman.

O`tgan darsda o`tilgan M.Burhonov musiqasi, A.Oripov she’ri ”O`zbekiston Davlat madhiyasi” qo`shig`ini ifodali qilib takrorlab, mustahkamlayman.

Yangi Qambar Ota she’ri, F.Alimov musiqasi ”Oyimlarday muloyim” qo`shig`ining mazmuni tarixi bilan tanishtirib, kuylab beraman. Bu qo`shiqda insonlarni o`z mehribon onalariga bo`lgan mehr-muhabbati, va onalar dunyodagi eng mo`tabar zot ekanligi haqida kuylanadi. Qo`shiq sur’ati bosiq, o`rta sur’atda bo`lishi kerak. Yakkaxon va fortepiano ijrosi uyg`unligiga erishish, o`n oltitalik liga bilan qo`shilgan notalarda bo`g`inlarni to`g`ri ijrosini, ayniqsa, takt bilan ajratilgan ”oy to`lib” so`zida keskin urg`uga yo`l qo`ymaslikka harakat qilish lozim.

Shuninhgdek, vokalizdagi forshlaglarning ijrosida tovushlarni muloyim intonatsiya qilish talab etiladi. Bu qo`shiq re major tonligida, kuplet shaklida, 2/4

o`lchovida yozilgan. Endi qo`shiqni o`quvchilarga ifodali qilib mayin ovozda ijro etib beraman.

Qo`shiq nomi va mualliflari kimlar?

Qo`shiq qanday ladda, tempda yozilgan?

Qo`shiq mazmuni nima haqida?

Qo`shiq qanday o`lchovda va shaklda yozilgan?

Qo`shiqni musiqiy jumlalarga bo`lib, notalar nomi bilan yoki biror bo`g`inda 2/4 o`lchovida dirijyorlik qilib o`rgataman.

So`ngra qo`shiqni magnit tasmasida ”Tantana” guruhi tomonidan ijro etilgan, zamonaviy estrada cholgg`ulari jo`rligida chalingan kuyini tinglataman. Opera san’ati haqida o`quvchilarga ma’lumot beraman. Opera janri o`z qadrini yo`qotmagan, chuqur mazmunga ega bo`lgan yetuk namunaviy, uzoq tarixga ega bo`lgan asar.

Opera-lotincha so'zdan olingan bo'lib, mehnat mahsuli, asar degan ma'noni bildiradi. Opera qorishma (sintetik) janr hisoblanadi, u o'zida bir necha san'at turlarini mujassam etadi: unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi. Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Operaning adabiy asosi - librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramolarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Turli vokal ansambl (duet, trio va b.) larda qahramordarning o'zaro munosabatlari o'z aksini topadi. Xor esa ro'y berayotgan voqealarning izohlovchi vositasi vazifasini bajaradi, uning yordamida xalq hayoti lavhalari gavdalanadi. Operada orkestr ham katta o'rin egallaydi: vokal shakllarga jo'r bo'ladi, mustaqil cholg'u qismlarda vaziyatning mazmunini ochib beradi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, sujet xususiyatlariga va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq. O`zbekistonda birinchi o`zbek operasi “Bo`ron” 1939 yilda kompozitorlar Sergey Vasilenko va Muxtor Ashrafiylar tomonidan yaratilgan. O`sha davrdan hozirgacha O`zbekistonimizda yuzdan ortiq operalar yaratildi. Operalardagi ariya, arioza va

xorlarni kuyini orkestr jo`rligida ijro etiladi. Har bir opera asosini ariyalar tashkil etadi. “Layli va Majnun” operasi (S. Vasilenko va M. Ashrafiy) dagi Layli va Qays ariyalarini, “Zaynab va Omon” operasi(B.Zeydman va D.Zokirov)dagi Zaynab ariyalari va Omon ariyalarini, “Tohir va Zuhra” operasi (TJalilov va B. Brovsin)dagi Tohir va Zuhra ariyalarini, Dilorom operasi (M.Ashrafiy)dagi Dilorom ariyalarini, “Maysaraning ishi” operasi (S.Yudakov)dagi Cho`pon, Oyxon, Mullado`st, Hoji Darg`a ariyalarini bunga misol keltirishimiz mumkin. Hozir sizlar bilan “Maysaraning ishi” operasidan “Oyxon ariyasi”ni va “Cho`pon ariyasi”ni tinglaymiz.

Tinglangan asarlar bo`yicha o`quvchilarga savollar beraman.

Hozir tinglagan ariyalaringizni nomi nima va uni kim yaratgan?

Uni kuyini qamnday cholg`uchilar dastasi chalgan?

Opera san’ati deganda nimani tushunasiz va uning tarixi?

O`zbekistonda qaysi kompozitorlar opera asarlari yaratganlar? Berilgan javoblar yuzasidan o`quvchilarni baholayman. Baholarni ovoz chiqarib e’lon qilaman.

Darsni yakunlayman, uyga vazifa beraman. O`zbek operalari nomlarini yozib kelish, yuqoridagi ariyalardan birportasini tinglab tahlil qilib kelish, bugungi o`tilgan qo`shig`imiz so`zlarini yodlab, dirijyor;lik ishoralarini o`rganib keling deb o`quvchilar bilan xayrlashaman.

**6-sinf uchun bir soatlik dars ishlanmasi.**

Mavzu: ”Zamonaviy musiqaning asosiy xususiyatlari”

Darsning mavzusi: ”Zamonaviy musiqaning asosiy xususiyatlari”.

1.Qo`shiq: ”Ishqingda yonib” H.Rahimov musiqasi, O`tkur Rashid she’ri:

2. Musaiqa savodi: Intevallar haquda bilim;larni mustahkamlash.

3.Musiqa tinglash: Zamonaviy musiqa asarlaridan Ik.Akbarov musiqasi, Turob To`la she’ri bilan7 ”Qaydasan” romansini tinglash.

Darsning maqsadi.

Ta’limiy: O`quvchilarga Zamonaviy musiqaning asosiy xususiyatlari haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: Zamonaviy musiqaga muhabbat va qiziqish uyg`otish.

Rivojlantiruivchi: Intervallar haqida ma'lumot berish. Bilimlarni mustahkamlash.

Darsni jihozlash: 6-sinf darsligi, reja-konspekt, musiqa cholg`u asbobi (pianino, rubob) DVD, SD disklar, tarqatma materiallar, kartochkalar.

Darsning turi: Aralash.

Darsning borishi:

O`quvchilar bilan salomlashib, davomatni aniqlayman. Uyga berilgan vazifani tekshiraman, kartochkalar tarqatib, savollar beraman:

Estrada qo`shiqchiligi haqida ma'lumot bering?

Kompozitor Dilorom Omonullayeva ijodi haqida nima bilasiz?

Botir Zokirov ijtro etgan qo`shiqlari nomini aytib bering?

O`tgan darsda tinglangan asar mazmuninimyoritib bering?

So`ngra o`quvchilar ovozini sozlayman.

Artikulyatsiya apparatini ishga solish uchun mashqlar kuylataman.

Sof intonatsiyaga erishish uchun mashqlar kuylataman.

Oldingi darsda o`rgatilgan "Chamandagi gullarmiz" qo`shig`ini (N,Norxo`jaywev musiqasi, P.Mo`min she'ri) takrorlaymiz.

So`ngra qo`shiq mazmuni va asar asar ijrosi bilan tanishtirib, tahlil qilib musiqiy jumlalarga bo`lib o`rgataman. Bu qo`shiqda insonlarning ona Vatanimizga bo`lgan mehr-muhabbati kuylanadi. Ona vatanimizning bog`-u chamanzorlari, bepoyon dalalari haqida tarannum etiladi. Qo`shiq major tonligida yozilgan, o`rtacha tempda, mayin, ifodali qilib kuylanadi. Endi o`quvchilarga qo`shiqni musiqiy jumlalarga bo`lib o`rgataman.

Shu tariqa qo`shiqni I kupletini o`rgataman.

Bugun sizlar bilan zamonaviy musiqaning asosiy xusisiyatlarei bilan tanishamiz. Zamonaviy musiqa deganda birinchi o`rinda ko`z o`ngimizda estrada san'ati gavdalanadi.

Estrada tushunchasi – lotincha tomosha koʻrsatish uchun maxsus koʻtarilgan, joyya’nisahna ma’nosini anglatadi. XIX asr oxirlariga kelib bu tushuncha yakka tartibda, kichik shaklda ijro qilish ma’nosini anglata boshladi.

XX asr  oʻzbek musiqa san’atida keskin yangilanishlar davri boʻldi, “noan’anaviy” bastakorlik ijodiyoti hamda yangi konsert shakllari yuzaga keldi. Shu munosabat bilan musiqiy madaniyatga ham “estrada” tushunchasi kirib keldi.

Oʻzbek musiqiy estradasi shakllanishi jarayoni folklor namunalari muhim zamin boʻlganligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda qoʻshiq, lapar va ayniqsa shoʻx yallalarning raqsbopligi, yengil ohang – usullari qoʻl kelgandi. Ayni paytda bu holat “oʻzbek musiqiy estradasi”ning milliylik asosini ham ta’minlovchi vositalardan boʻldi.

“Oʻzbeknavo” estrada birlashmasi bilan Anor Nazarov, Alisher Ikromov, Alisher Rasulov, Doni Ilyosov, Bahrulla Lutfullaev, Dilorom Omonullaeva, Sultonali Rahmatov kabi bastakorlar, Qodir Moʻminov, Shokir Ahmedov, Ma’mura Ergasheva, Nasiba Madrahimova, Muyassar Sotvoldieva, Viloyat Oqilova kabi baletmeysterlar ijodiy hamkorlik qilmoqda. Bu hamkorlik Ozodbek Nazarbekov, Gʻulomjon Yoqubov, Zulayho Boyxonova, Sobir Moʻminov, Ilhom Farmonov, Gulsanam Mamazoitova, Avaz Olimov, Izzat  Ibragimov, Abdulla Shoma’rupov, Rayhon Gʻanieva, Rashid Xoliqov, Anvar Gʻaniev, Gʻiyos Boytoyev, Mahmud Namozov, Mavluda Asalxoʻjaeva, TohirSodiqov, Sevara Nazarxon, ShuhratQayumov, Feruza Jumaniyozova, Dilnoza Ismiyaminova, Samandar Hamroqulov, Yodgor Mirzajonov, Jahongir Otajonov, Jasur Mirsagatov, Sardor Rahimxon, Iroda Dilroz, Lola Ahmedova, Firdavs Pazleddinov, Hulkar Abdullaeva, Abduvali Rajabov, Sevinch Moʻminova, Shahlo Rustamova, Ogʻabek Sobirov, AnvarSobirov, Akmal Isroilov, Hosila Rahimova, Toshpoʻlat Matkarimov, Aziz Rajabiy va boshqalar ijodining mavzu jihatdan boyishida muhim oʻrin tutdi.

Ular tomonidan yaratilgan asarlar Mustaqillik, Navroʻz, “Oʻzbekiston – Vatanim manim”, “Nihol”, “Sharq taronalari” va shu kabi oʻnlab Xalqaro va

Respublika ko‘rik-tanlovlarida, festival-forumlarda, bayram va tok-shoularda ijro qilina boshlandi.

Hozir sizlar bilan birga “Qaydasan”romansini SD diskda tinglaymiz.

So`ngra tinglangan asar yuzasidan savol-javob o`tkazaman

Qaydasan asari qanday mazmunga ega ekan?

Bu qo`shiqni musiqasini qanday cholg` guruhi chalgan?

Endi intervallar haqidagi bilimingizni mustahkamlaymiz.

1.Intedrval deb nimaga aytiladi?

2.Intervallar necha turga bo`linadi?

3.Sof  intervallar nomini ayting?

4.Katta-kichik intervallarni nomini ayting”

Quyidagi berilgan notalardan yuqoriga qarab raqamlarga monand intervallar tuzing va ovozda mashq kuylang.

Bugun sizlar bilan Zamonaviy musiqa, uning asosiy xususiyatlari va intervallar bilan tanishdik. Uyga vazifa zamonaviy musiqa haqida bilimlarni mustahkamlash. Qo`shiqni o`rganish, intervallarga misollar tuzib kelish. Xayr dars tamom.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki vocal san’atining turlaridan bo`lgan opera janri va estrada janri bilan o`quvchilarni tanishtirish, ushbu janrlarhaqida chuqur ma’lumotga ega bo`lish ularda musiqani chuqur anhlash kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi va o`z ota-oanalariga, do`stlariga, kushilarga, tabiatga va ona Vatanimizga bo`lgan muhabbat tuyg`ularini shakllantirishga va hayotni, musiqa san’`tini sevishga o`rgatadi.

.

## II.3. O`quvchilar ovozini rivojlantirish bo`yicha o`tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalarini aniqlash

Maktab o`quvchilarida vokal ijrochiligi, ya'ni qo`shiq kuylash malakalari , asosan musiqa madaniyati darslarida, hamda vokal va xor to`garaklarida shakllanadi.Musiqa madaniyati darslarida vokal san'atini o`rgatishning sifat va samaradorligini oshirish uchun eng avvalo har bir o`quvchi o`zining mehnat quroli bo`lgan ovoz apparatini yaxshi bilishi va har zumda uni his qilib turishi muhimdir. Vokal malakalarini o`quvchiga singdirish shu jihati bilan ham murakkabdirki, uni faqat ko`rsatib berishning o`zi kifoya qilmaydi. Bunda o`quvchi aytilayotgan fikrlarni faqat tinglab yoki ko`rib emas, balki jismonan o`z tanasi, sezgi organlari, biologik tuzilishi va fiziologik jihatdan sezib idrok qilishi lozimdir.

Shuning uchun ham o`quvchiga ovoz hosil qilishning fiziologik va akustik asoslarini singdirishga alohida e`tibor berish lozimdir. Shuni hisobga olgan holda biz quyida bu borada o`quvchilar bilan olib boriladigan dastlabki ishlar haqida to`xtalamiz.

O`pka va nafas yo`llari. Inson o`pkasi ko`krak qafasining ichki tomonida joylashgan bo`lib, u  yaproq shklidagi ikki qanotdan iborat. Bu yaproqlarga burundan olingan nafas tarqalib, undagi pufaklar shaklidagi kataklarga kirib turadi va undan o`tadigan qon tomirchalarini yangi kislorod ozuqasi bilan yangilab "ta`minlab" turadi. Bunda har kunlik hayotimiz jarayonida olinadigan nafas bilan kuylash uchun olinadigan nafasni farqlay olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatdagi nafas olganda uch muhim holatni kuzatish mumkin. Nafas olish, nafasni chiqarish va nafas olishdan oldin to`xtalish, ya`ni nafas olishga tayyorgarlik ko`rishdan iboratdir.

Kuylash uchun nafas olganda havo ko`proq olinadi. Shundan bir qismi o`pkaning faoliyatini ta`minlash uchun sarf qilinsa, qolgan qismi asosan qorin bo`shlig`iga to`planadi. Nafas to`plangandan keyin, uni saqlab turishga alohida e`tibor berish talab etiladi. Uni sarflashni, undan foydalanishni boshlashdan oldin, nafasni to`xtatib, tayanch nuqtasini hosil qilish zarur bo`ladi. Tayanch nuqtasi biror

sekund davomidagi to`xtalishga asoslanadi va shundan so`nggina nafasdan foydalanish boshlanadi. O`quvchi aynan shu tayanch nuqtasini his qilmas ekan va nafas zahirasini his qilmas ekan, bu jarayonga ko`nikma hosil qilishi qiyin. Buni his etganda esa, kuylash anchagina oson ko`chadi.

Italiya maktabining asoschilaridan biri bo`lgan F.Lampertining ta`kidlashicha, “Kuylash san`ati bu – nafas olish san`atidir”[6].

Zero har qanday kuylash asosini nafas tashkil qiladi. Demak, uni ashulachilikning poydevori deyish va balki ashulachilik imoratining devori deyish ham xato bol`maydi.

Ashulachilik ahamiyatida nafasning xilma – xil turlari mavjud ekanligini vokal mutaxassislari aniqlab berganlar. Ulardan qaysi biri to`gri ekanligini aniqlab olish o`quvchining samarali kuylashining ta`minlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Quyida nafas olish turlari haqida qisqacha to`xtalib o`tish zarur deb hisoblaymiz.

Ko`krak qafasidan nafas olish. Bunda nafas asosan ko`krak qafasidan olinadi. “O`quvchi nafas olish turlaridan biriga  tayanmas ekan, u hech qachon to`g`ri kuylay olmaydi”. Shuning uchun o`quvchiga birinchi navbatda o`rgatiladigan narsa kuylash uchun olinadigan nafas zahirasini to`play olish va uni sarflashdan oldin olinadigan to`xtalishni saqlay olishga o`rgatishdan iborat bo`ladi.

Nafas zahirasini to`plash holatini aniq tasavvur qilish uchun bosh barmoqlarni belga qo`yib, kaftlarni qorin ustiga qo`yish lozim bo`ladi. Nafas to`plash holatinin mustahkamlash uchun bir necha bor nafas olib zahiraning saqlanish holatini his qilib olish lozim bo`ladi. Nafasning to`planishi uni kiftlar orqali sezib, uning qay darajada mukammalligini kuzatib, uni sezib borish mumkin bo`ladi. Bundan keyingi muhim jarayon nafasni bir me`yorda sarflashdan iborat bo`ladi. Buni ham aynan shu yo`l bilan mashq qildirish lozim.  Nafasni imkoniboricha uzoqroq saqlab turishga va buning uchun uni tejamli sarf qilishga odatlanish lozim bo`ladi.

Talabalar nafas olish, uni to`xtatish va undan foydalanish malakalarini qayta takrorlab nafas olayotganda yelkaning ko`tarilish holatini kuzatib boradilar. Bunday nafas olish xonandalarni tezda charchatadi va  u tomoshabin uchun ham

[6]Pirmatov Sh. Yakka qo`shiqchulik san’ati. Toshklent, 2008. 7-bt

og`ir tuyuladi. Shuning uchun ko`krak tepasiga, to`g`rirog`i yelkani ko`tarib nafas olishga o`quvchilarni odatlantirmaslik lozim.

Ko`krak nafasi – bunda nafas asosan o`pkaning yuqori va o`rta qismiga olinadi. Nafas olish jarayonida ko`krak nafasi tez-tez ko`tarilib, tushadi va shuning uchun ham bu xonandaning tezda charchab qolishiga olib keladi. Bunda o`pkaning pastki keng qismi deyarli ishlatilmaydi va bu ijrochilik imkoniyatinin ma`lum darajada chegaralab qo`yadi. Bunday nafas olishni o`quvchilarga ko`rsatib, bu haqda ma`lumot berish bilan bir qatorda ulardan amaliyotda foydalanish ijrochilikka to`la imkon bermasligini ham tushuntirib berish lozim. Bu nafas ko`proq qizlarga va bolalarga xosdir.

Qovurg`a osti nafasi – asosan erkaklar uchun harakterli bo`1ib, bu o`z navbatida yuqoridagi nafasning ikki turiga qaraganda anchagina kengroq imkoniyatga ega bo`ladi. Bu nafas turining ham kengroq imkoniyatgaega ekanligi, ham qo`llanilishi haqida o`quvchilarga ma`lumot berib borish zarur bo`ladi.

Diafragmatik nafas – bunda nafas olish ko`lami o`pkani to`liq ishga solgan holda kindik atrofida olinadigan nafas hisoblanadi. Bunday nafas olish mahoratli ashulachilarning nafas olish holatiga to`g`ri keladi. Bunda nafas olish imkoni anchagina kengayadi va nafasning zahirasini qorin bo`shlig`iga to`plash imkoniyati ham kengayadi. Bunday olingan nafas puxta va salmoqli bo`lib, katta-katta frazali asarlarni ham kuylashga imkon tug`iladi.

Kostoobdominal nafas- ya`ni Costa-qovurg`a va afdomen – qoringa nafas olib kuylash uslubi eng to`g`ri uslub. Bunda pastki qovurg`ani his qilgan holda qorin bo`shlig`iga to`liq nafas olish asosiy rol o`ynaydi. Bu o`ziga xos “qo`shma” nafas hisoblansada, bunda qorin bo`shlig`iga erkin nafas olib kuylash asosiy o`rin tutadi. Kosto obdominal nafas ashulachilik uchun eng qulay bo`lib, unda qorin bo`shlig`iga juda katta nafas zahirasini to`plash imkonini beradi. Bunda barcha nafas organlarining erkin ishtirok etishiga imkon tug`iladi. Kostoobdominal nafas olish holatining to`gri ekanligini aniqlashda yuqorida ta`kidlaganimizdek bosh barmoqni bellarga qo`ygan holda kaftlar bilan qorinni ushlab turish va olinayotgan

nafasni sezib borish orqali kuzatilib boriladi. Bunday nafas olishda diafragmani ishga solish muhim rol o`ynaydi.

Diafragma – bu pastki qovurg`a oralig`ida hosil bo`ladigan yumaloq joy hisoblanadi. Diafragma o`z ichiga qorin bo`shlig`ida joylashgan jigar, bo`yrak, qorin, ichaklar, qizil o`ngach kabi organlarni oladi.

Nafas olish jarayonida o`quvchilarning e`tiborinin bir nafasga qaratish va ularni shunga ko`niktirib borish lozimki nafasni ortiqcha olib tiqilib qolish holatiga ham yo`l qo`ymaslik lozim. Nafasni shunday olish lozimki, bunda nafasni rostlab, uni ishga solish imkoniga ega bo`lish lozim. Bu aynan ortiqcha ovqat yeb qo`yib, uni hazm qila olmay bo`kib qolgan kishini eslatadi, har ikki holatda ham nafasni boshqarib bera olish imkonini yo`qotmaslik talab etiladi.

Yaxshi nafas olingaidan so`ng ikkinchi muhim vazifani bajarishga kirishiladi, ya`ni nafasning bronxlar, nafas yo`llari orqali inson tomog`ida joylashgan tovush hosil qilish apparatiga yo`naltirib, ovoz hosil qilish jarayoni bopshlanadi. Bu jarayonda tomoqdagi tovush hosil qilish apparati asosiy rol o`ynaydi. Unda ovoz paylari mavjud bo`lib, oddiy nafas olish holatida bu paylar ishlatilmaydi. Ovoz hosil qilish uchun esa, bu ovoz pardalari tarang tortilib, uni nafas yo`llari orqali kelayotgan havo tebratadi va natijada tarang tortilgan ovoz paylarida ovoz hosil bo`ladi.

O`quvchilarga bu haqda ma`lumot berish bilan bir qatorda bu ovoz paylarining nihoyatda nafis ekanligi va uning nozik pardalari kuchliroq zo`riqish orqasida dars ketishi mumkinliginin uqtirib borish zarur bo`ladi.

Shuningdek, ovozning erkin hosil qilinishi uchun tomoqdagi muskullarni zo`riqtirmasdan mayin harakatlanishini ta`minlashga alohida e`tibor berish lozim. Ovozning tomoqda g`irillab hosil bo`lishi, yoki ovoz paylariga kuch berib kuylash xonandani tezda charchatib qo`yishi va bora-bora bu tomoqning ovoz hosil qilish faoliyatini mushkul ahvolga olib kelishi mumkinligini o`quvchilarga har doim uqtirib borish lozim.

Ovoz hosil qilishning muhim jihatidan uchinchisi hosil qilngan tovushning tanglayda jaranglab chiqishiga erishishdan iborat bo`lib, nafas orqali ovoz paylarida hosil qilingan tovushning tepa tanglayiga urilib, ovozning jaranglab chiqishiga erishishdan iborat bo`ladi. Ovozning hosil bo`lishida vafas olinib, tayanch nuqtasi hosil qilingandan so`ng, nafasning ovoz paylariga urilib tanglayni jaranglashi bir-biriga bo`g`lanib keladigan uzviy bir jarayon ekanligini ham o`quvchilarga uqtirib borish bilan birga ularning bir-birladiga bog`liq holda uzviy bog`lanib ishlatilishi bo`yicha ham o`quvchilarning malaka hosil qilishlariga alohida e`tibor berish va muntazam ravishda ish olib borishni ta`minlab borishga fikr qaratiladi.

Nihoyat, to`rtinchi muhim vazifa bu hosil qilingan ovozga shakl berib, uni turli unlilar yordamida ifodali qilish va undoshlarning talaffuzlari orqali ovozning ifodali bo`lishini ta`miunlashdan iborat. Bunda ovozning og`iz komida aylantirilib, unga salmoq berish til, tish, lab orqali uning diktsiyasiga to`g`ri talkaffuz qilinishiga e`tibor berish muhim rol o`ynaydi. Shu tariqa tovush ifodali talaffuzga, ohang esa, ashulaga aylanadi.

Bu to`rtta muhim vazifalarni amalga oshirish jarayonlari ashulachilikning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Ta`lim samaradorligini oshirish bo`yicha olib borilgan sinov-tajriba ishlarini amalga oshirish uchun biz eng avvalo ikkita guruhni tanlab oldik va ularning bittasini tajriba sinfi sifatida qabul qildik va ikkinchisini nazorat sinfi sifatida tanladik (7 ”a” va 7 ”b”- sinflar).

Tajriba sinfi o`quvchilari bilan ish olib borib, unda o`quvchilarga bir qator muhim elementlarni singdirish va ma`lum bilim berish ishlari amalga oshirildi. Ikkinchi guruh o`quvchilari esa odatiy tarzda o`qitildi.

Tajriba ishlari Qarshi shahridagi 5-son umumta`lim maktabida olib borildi.

Tajriba sinflariga qo`yilgan talablar asosan quyidagilardan iborat bo`ladi:

1.O`quvchilarni vokal tarixiga oid materiallar bilan qurollantirish;

2.Ularning nota yozuvlaridan erkin foydalana olish texnikasiga ega bo`lishi;

3.Ularning Yevropa uslubida kuylash an`analarini egallashi;

4.Xalq an`ana va ashulachilik uslublaridan xabardorligi gulligi, binnigi va ishkami, ulardan birida erkin kuylay olishi va o`zbekona ashulachilik an`analariga xos bezaklardan qiynalmay foydalana olishi;

5.Ashulachilik pastanovkasiga xos 4 elementdan xabardorligi va undan amaliyotdafoydalana olishi (nafas, tovush hosil bo`lishi, tanglayda jaranglashi va og`iz komida salmoqlanib, talaffuzga aylanishi);

Sinov – tajriba sinfi o`quvchilari bilan oldindan rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirish bo`yicha tizimli ravishda ish olib borildi.

Tabiiyki, sinov-tajriba sinfi bilan nazorat sinfi o`rtasidagi farqdan biz olib borgan ishlarning qay darajada foydali ekanligini aniqlab olish mumkin bo`lar edi. Shu farqni aniqlash nuqtai-nazaridan o`quvchilar uchun tekshiruv savollari tuzilib, shu asosida bilimlari aniqlanadi.

Tekshiruv savollarini tuzishga biz olingan mavzuning yo`nalishidan kelib chiqqan holda yondoshdik va tuzilgan tekshiruivvarianlari quyidagi savollarni o`z ichiga oldi.

O`quvchilarning bilimini aniqlash uchun tuzilgan tekshiruv savollari:

1.Vokal tarixi bo`yicha yozilgan materiallardan xabardormisiz? Misollar keltira olasizmi?

2.Ovoz hosil qiluvchi organlar haqida gapirib bera olasizmi?

3.Vokalizlar, vokal asarlarini nota yozuviga qarab erkin, adashmasdan kuylay olasizmi?

4.Ashulachilik pastanovkasiga xoz elementlarni bilasizmi? Ularga xos 4 element haqida so`zlab bering?

5.Zamonaviy estra qo`shiqchiligi haqida gapirib bering?

6.Ovoz qo`yish mashqlaridan kuylab bera olasizmi?

7.Opera janri haqida gapirib bering?

8.Zamonaviy musiqaning asosiy xususiyatlari haqida gapiring?

O`quvchilar uchun tuzilgan bu tekshiruv  savollari bilan murojaat qilishda ularning erkin fikr yuritishlari va savollarga yetarlicha to`liq javob berishlariga to`la imkoniyat yaratib berildi.

Tekshiruv  savollari faqat tajriba olib borilayotgan sinf o`quvchilariga emas, balki nazorat sinfi o`quvchilariga ham to`liq tarqatildi. Talabalarning egallagan bilim va malakalarinin baholashning asosiy mezoni qilib tuzilgan tekshiruv savollariga berilgan javoblar asos qilib olindi.

Tekshiruv savollariga olingan javoblarni tahlil qilish asosida ular egallagan bilim va ko`nikmalarning bir - biridan farqi aniqlab olindi.

Tekshiruv savollari tahlili shuni ko`rsatadiki, sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda yuqori darajadagi ko`rsatkichlar soni anchagina ko`proq bo`lib, nazorat sinfida esa bu raqamlar anchagina past ko`rsatkichga ega bo`ldi.

Nazorat sinfidagi past darajadagi ko`rsatkichlar salmoqli darajada bo`lgani holda, sinov-tajriba ishlari olib borilgan sinflarda past darajadagi javoblar soni anchagina kam raqamni ko`rsatadi. Ayni paytda sinov tajriba sinfi o`quvchilarining orttirgan bilim va ko`nikmalari ham sezilarli darajada ijobiy natijalar mavjud.

Tekshiruv savollariga olingan javoblarning qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tajriba sinfi va nazorat sinfi o‘quvchilarining bergan javoblarini quyidagi jadval asosida aniqladik.

1-jadval

| № | Sinflar yo‘nalishi | O‘quvchilar soni | Javob darajalari | Tekshiruv savollariga javoblar | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 1 | Tajriba sinfi | 27 | Yuqori | 21 | 21 | 19 | 20 | 20 | 19 | 21 | 20 |
| | | | O‘rtacha | 3 | 4 | 6 | 5 | 5 | 5 | 4 | 4 |
| | | | Past | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 2 | 3 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Jami | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 |
| 2 | Nazorat sinf | 27 | Yuqori | 13 | 14 | 14 | 12 | 12 | 13 | 14 | 14 |
| | | | O‘rtacha | 8 | 5 | 4 | 5 | 6 | 4 | 4 | 5 |
| | | | Past | 6 | 8 | 9 | 10 | 9 | 10 | 9 | 8 |
| | | | Jami | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 | 27 |

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, biz ish olib borgan tajriba sinfida o‘quvchilarning musiqiy madaniyat haqidagi bilim, tushuncha va ko‘nikmalari nazorat sinfiga nisbatan anchagina yuqori.

Xususan, yuqori darajada javob berganlarni bir-birlariga solishtirib ko‘rganimizda, bu ikki sinf o‘quvchilari orasidagi tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dars jarayonida o‘quvchilar fikrini ma’lum mavzu yo‘nalishiga qaratish va turli shakl va uslublardan foydalanish yaxshi natija beradi.

2-jadval

| № | Sinflar yo‘nalishi | O‘quvchilar soni | Javob darajalari | Tekshiruv savollariga javoblar | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
| 1 | Tajriba sinfi | 27 | Yuqori | 21 | 21 | 19 | 20 | 20 | 19 | 21 | 20 |
| 2 | Nazorat sinfi | 27 | Yuqori daraja | 13 | 14 | 14 | 13 | 13 | 13 | 14 | 14 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3 | Oradagi farq | 27 | Yuqori daraja | 8 | 6 | 4 | 7 | 7 | 5 | 6 | 5 |

Tajriba sinfda yuqori darajada javob bergan o‘quvchilar soni 19 tadan 21 tagacha bo‘lgani holda, nazorat sinfidagi bu ko‘rsatkich 13 tadan 15 tagacha bo‘lgan. Taqqoslash natijasida tajriba sinfida yuqori darajadagi o‘quvchilar soni 4 tadan 8 tagacha farq qilishi aniqlandi. Shundan kelib chiqqan holda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarimiz nazorat sinfiga nisbatan unumliroq bo‘ldi.

Tadqiqot nihoyasida tajriba guruhi o‘quvchilari bilan nazorat savollari bo‘yicha anketa o‘tkazilganda, ularning dunyoqarashlari, vocal san’ati haqidagi qarashlari ijobiy tomonga o‘zgarganligiga guvoh bo‘ldik. Maxsus dars o‘tish metodikasi va uning mazmunidan kelib chiqib, tajriba –sinov ishlarida qatnashgan o‘quvchilarning dasturdagi qo‘shiqlardan foydalanish ko‘nikmasi, ijro uslubi va mahorati, hamda shular vositasida yangi pedagogik texnalogiyalarni qo‘llanilishi orqali ularning estetik tarbiyalanganlik darajalarini asoslovchi tajriba jarayonida ular tomonidan qayd qilingan ko‘rsatkichlarga nisbatan ijobiy o‘sish ro‘y berganligi aniqlandi. Bu boradagi holat tadqiqot nihoyasida tajriba – sinov ishlarining muvoffaqiyatli kechganligi tadqiqot ishining pedagogik va ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligi va samarali bo‘lganligidan dalolat beradi. Pedagogik tajriba – sinov natijalarini tahlil etishda o‘quvchilarni estetik sifatlarini o‘sish dinamikasi va pedagogik texnalogiyalarni tadbiq etilgan natijalarini bilish uchun matematik – statistika metodi qo‘llanildi. O‘quvchilarni tajribadan keyingi o‘zlashtirishlari quyidagi jadvalda aks etgan.

3-jadval

Sinov-tajriba va nazorat sinflaridagi javoblar k`orsatkichlarining solishtirma jadvali.

| № | Sinflar | Talabalar soni | Yuqori darajada | O`rtacha darajada | Past darajada |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sinov tajriba sinfi | 27 | 21 | 3 | 3 |
| 2 | Nazorat sinfi | 27 | 14 | 5 | 8 |
| | **Farqlar** | | 7 | 2 | 5 |

Sinov – tajriba ishlari shuni ko`rsatdi-ki, oddiy uslubda dars o`tilgan sinf o`quvchilariga nisbatan maxsus tayyorgarlik ko`rilib o`tilgan tajriba sinfi o`quvchilari ancha yuqori natijalarga erishganligini guvohi bo`ldik.

## XULOSA

Hozirgi kunda yosh avlodni zamon talablari darajasida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan keng foydalanish, milliy mafkurani yoshlarda shakllantirish, ma`naviy-ma`rifiy sohadagi ishlarni takomillashtirish, uzluksiz ta`lim muammolarini hal etish masalalariga alohida e`tibor berilmoqda.

Milliy istiqlol sharofati bilan, ma`naviy hayotimizda yosh avlodni axloqiy estetik tarbiyasida o`zgacha e`tibor berilib, yangicha yondoshishni taqozo etib kelinmoqda. O`sib ulg`ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda musiqa alohida o`rin tutadi. Bolalarni go`zallik ruhida tarbiyalashda musiqa tarbiyasi haqida buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning kuy, qo`shiq ilhombaxsh, shifobaxsh hamda hayotbaxsh etuvchi ajoyib kuch deb ta`kidlasa, Abu Nasr al-Farobiy "Kuy –qo`shiq kishining ruhiy muvozanatini saqlaydi"- debta`riflab berishgan[7].

Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda, ularni to`g`ri yo`lga boshlash, san`atga mehr qo`yish, milliy qadriyatlarimizni e`zozlash, Vatanni sevish va uning ravnaqi uchun xizmat qilish har tomonlama yetuk, barkamol, yuksak ma`naviyatli kishilar qilib tarbiyalashda vokal san`atining tutgan o`rni juda muhim.

Yosh avlodni ma`naviyatli va madaniyatli inson qilib tarbiyalash mavzusi ilmli insonlar, bo`lajak allomalarimiz, olimu-fuzalolarimizning diqqat markazida qadim-qadimdan o`rin olib kelgan.

O`rta Osiyoda yashab ijod qilgan qomusiy allomalarimiz al-Forobiy, Al-Urmaviy, al-Xorazmiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy va ularning davomchilari Zamaxshariy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ziyo Said va boshqalar ijodida ham axloqiy madaniyat muomalasi yetakchi o`rin egallab kelgan.

Tariqat ilmining, xususan Qur`oni Karimdan keyin ikkinchi o`rinda hadislarni va mualliflari at-Termiziy, al-Buxoriy bobolarimiz, piru-komil ustozlarimiz Xo`ja Axror Vali, Naqshbandiy, G`ijduvoniy, Urmaviy, Zangi ota,

---

[7]Rajabov I. Maqomlar. Monografiya. Toshkent, 2006 yil. 27- bet

Paxlavon Maxmud va ko`plab olimlar bizning vatandoshlarimiz ekanligi va ular tariqat ilmi va madaniyatning asoschilaridan ekanligi bilan faxrlanish lozim. Ularning nomi yoshlar tarbiyasida namuna va o`rnak, faxr va iftixor manbai bo`lib kelmoqda. Ular bizning naslu-nasabimizning naqadar buyuk ekanligidan va yoshlarni aynan shu bobolar an`anasiga sodiq, ularning qutlug` nomlariga munosib farzand bo`lish ruhiyatida, shu yuksak madaniyatni saqlab qolish va uning munosib davomchilari qilib yetishtirish o`qituvchining muqaddas burchidir.

Musiqa madaniyati darslarida qo`shiqlar vositasida o`quvchilarda vokal san'ati ko`nikmalarini shakllantirish yo`llarini tadbiq qilish quyidagi xulosalarga olib keldi:

1.Musiqa madaniyati darslarida vokal malakalari bo`yicha olib boriladigan ishlarning sifat va samaradorligini oshirishda jahon va o`zbek vokal san`ati tarixiy manbaalarini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.Jahon va o`zbek operalaridagi ariya, arioza va qo`shiqlarni gramyozuv va gramplastikalar orqali eshittirish, kelgusida iqtidorli o`quvchilarni oliy o`quv yurtlarida jahon talablari darajasida bilim olishlariga va vokal asarlarini mukammal o`rganishlariga keng imkon beradi.

3.Vokal asarlarini mukammal o`rganishda nota savodxonligini bilish vauningimkoniyatlaridan foydalanish, ularni qo`shiqchilik san`atini puxta o`zlashtirishlarida hal qiluvchi o`rinni egallaydi.

4.O`quvchilarda vokal ko`nikmalarini shakllantirishda ovoz qo`yish mashqlarini mukammal egallash, ularda kuylash malakalari samaradorligini oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda musiqa madaniyati darslarida o`quvchilarda vokal san'atini shakllantirishni yo`lga qo`yish, ishchi materiallar asosida va qanday qilib amalgam oshirilishi ko`rsatib berilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.


1.Karimov I.A. “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent “O`zbekiston” 2011 – yil -439 bet.

2.Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. Toshkent-“O`zbekiston” 2015-yil, 240- bet

3.Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. “Ma`naviyat” 2008 yil.61- 130-140-betlar.

4.Mirziyoyev Sh.Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016yil 7-dekabr. Toshkent -“O`zbekiston”. 2017y. 22-bet.

5.Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi. Toshkent. 2007-yil. -242 bet,

6.Begmatov S, Mamirov Q, Mansurov A, Karimova D, Ro`ziyev I. “Musiqa” 6-sinf uchun darslik G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. Toshkent 2016 yil -119 bet

7.Begmatov S. Bastakorlik ijodi. Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent, “Niso-poligraf”. 2017 yil, -142 bet.

8.Jabborov A. Musiqiu drama va komediya janrlari. O’zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. Toshkent. 2000-yil. -215 bet.

9. JabborovA.H. O’zbek bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent “Musiqa” nashriyoti 2015 yil -407 bet

10.Ibrahimov O, Sadirov J “Musiqa” 7-sinf uchun darslik. G`.G`ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2010 yil -139 bet.

11.Ikromova M. Davra chorlar bolajon Toshkent - 2004-yil -54 bet

12.Ismoilova M.E. “Xalq qo`shiqlari vositasida o`quvchilarning ma`naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish” 1-7 sinf musiqa madaniyati darslari uchun o`quv metodik qo`llanma. Toshkent. “Istiqlol” nashriyoti 2006 yil -136 bet.

13.Ismoilova M.E. “Vokal o`qitish metodikasi” Oliy va o`rta –maxsus musiqiy ta`lim talabalari uchun o`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent “Musiqa” nashriyoti 2011 yil -75 bet,

14.Ismoilova M.E. “Bayramjonim-bayramjon” Umumiy o`rta ta’lim maktablari sinfdan tashqari to`garak ishlari uchun o`quv qo`llanma. Toshkent “Musiqa” nashriyoti. 2016 yil. -232 bet.

15.Karimova D “Musiqiy pedagogok mahorat asoslari” Toshkent “Iqtisod moliya” 2008-yil -98 bet.

16.Mansurov A, Karimova D “Musiqa” 5-sinf uchun darslik. Toshkent. G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. Toshkent 2015 yil -140 bet.

17.Matchanova G. Qo`shiq zavqi O`quv qo`llanma, Toshkent, “Musiqa” nashriyoti, 2015 yil, -`143 bet.

18.Muhammedova G. Xonandalik uslubiyoti asoslari O`z-D-K Toshkent 2007-yil

19.Norxo’jayev.N. Rahimov H. O'zbekiston vatanim manim. IV kitob G’.Gulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 2000-yil -132b.

20. Rajabov I. Maqomlar. Monografiya. Toshkent, 2006 yil. 27-bet. -403 bet.

21.Rizayeva M.“Yosh xonandaning kamoloti”. -T.: “Cho`lpon” 2003-yil-65 bet.

22.“San’at yo‘nalishlarida yoshlarni na’naviy-axliqiy tarbiyalash: izlanish, echim, va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami. Buxoro-2013-yil. -322 bet.

23.Sharipova G., Najmekdinov G`. “Musiqa o`qitish metodikasi praktikumi”. O`quv qo`llanma. Toshkent, “Turon-iqbol” 2014-yil -206 bet.

24. Shomahmudova B. Xor fanlarini o`qitish uslubiyoti. Musiqa oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. Toshkent-“Musiqa” nashriyoti. 2016 yil, -151 bet

25.Xolboyeva G. Yakkaxon qo`shiqchilik asoslari. Toshkent. O`zbekiston Davlat san`at Instituti 2008 yil -182 bet.

26.Hamidova M.A. Xonandalik san`ati. “San`at” jurnali nashriyoti. Toshkent. 2009 yil -245 bet.

27.Hasanboyeva O, Hasanboyev J, Hamidov H “Pedagogika tarixi” Toshkent 2004 yil. -209 bet.

28.Yuldasheva N. Raxmatova N. O’zbek musiqa adabiyoti. “Iqtisod-moliya” Toshkent. 2010-yil. -139 bet.

1.www.edu.uz

2.www.ziyo.edu.uz

3.www.ziyonet.uz

4.www.istedod.uz

5.www.gov.uz

## ILOVALAR

# Oyimlarday muloyim

Qambar Ota she'ri

F.Alimov musiqasi




tur- gan- day Oy im - lar- ning o‘z- la- ri. Men - dan hech u - zil-
, may- di Oy ning nur- li ko‘z la- ri. Naq te- pam - da


CODA

# ISHQINGDA YONIB

**O'. Rashid she'ri** **Hamid Rahimov musiqasi**

Asar lirik uslubda yozilgan bo'lib, yoqimli kuylashni talab qiladi . Eng muhimi ovoz shirasini yo'qotmaslik lozim. Ortiqcha kuch sarf qilmasdan nafasdan puxta foydalanib, so'zlarning ma'nosiga tushungan holda yopiqroq tovush bilan, zo'riqmasdan, kuylash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ohangdor mayin ovoz bilan shoshilmay, sayqal berib, mazmunli kuylash tavsiya etiladi.




Yo - ru di - yo - rim o'l - kam,
Men sen - ga xush - tor,
men sen - ga xush - tor,
Bo - g'i ba - ho - rim o'l - kam.
Kez - ma - sam bir dam,
kez - ma - sam bir dam,


Bag' - ring cha - man zo - ring - ni,
Bo'-lur - man hu - mor, bo'-lur - man hu - mor,
Qalb - da vi - qo - rim o'l - kam.
A... a...




www.ziyouz.com kutubxonasi



## DILOROM ROMANSI

*(«Dilorom» opërasidan)*

*Muxtor Ashrafiy musiqasi*



«Dilorom» opërasidan ikkinchi parda birinchi ko'rinishidagi Dilorom romansi qahramonning lirik-ruhiy holatini ifodalaydi. Unda Diloromning mahzun iztiroblari, mudhish taqdiri o'z aksini topgan. Yangi xo'jasiga cho'rilik qilishni kutayotganidan g'am chekadi.

Romans asosida maftunkor va jozibador o'zbek xalq kuyi bilan ijro ëtiladigan «Jonim mëning» qo'shig'i yotadi. G'amgin *frigiy* ladining bo'yoqlari soz iztiroblarini his ëtishni kuchaytiradi. Motamsaro qochirimlar vokal partiyasida uzilgan avjlar bilan taktning qismlarga ajratilgan kuchli ulushi akkomponementning ostinato harakatsizligiga asoslangan siljishni bir tëkis ushlab turadi.

Romans qalbdan kuylashni, samimiy his-turg'uni, to'g'ri va chuqur nafas olishni, so'zlarni aniq talaffuz qilishni taqozo ëtadi. U xonandaga yuqori rëgistrni mustahkamlash, ovoz ëgiluvchanligini ëgallashga yordam bëradi. Intonatsiya ustida iashlash, ifodali forshlag yolg'izlik va g'am-anduh hissiyotini tug'diruvchi oh urib kuylash alohida e'tiborni talab qiladi. Haqiqiy nazmiy maftunkorlik, ma'naviy boy hissiyot bilan timsol ichiga kirish uchun Saodat Qobulova bor qalb qo'rini, yuragini bërib, o'zining ëng noyob lirik-kolaraturali soprano ovoz bo'yoqlaridan foydalangan holda Dilorom timsolini yaratdi.




jo - nim me - ning
Gul to'-kil - mish se-rabor -
mish sarf o' - zi - din go' - yon
Cheh - ra o - chi - lish bog' aro
sar - vi xi - ro - mo - nim me - ning
O.


Daf - da da - fa qon a - ro siz me - ni dadur xar bir tu - gi - no
A tempo
O Lo - la - lar os - ti - da - dir bir do - g'u pin
- ho - nim me - ning til - gi ol - mish tel - bako'ng - lim - ni ya - na xay - ri ra - qib
qol - mish i - lar og' - zi - da maj - nu - nu - ul yo - rim me - ning
pp
pp
sf
p


Men an - gu xay - ro - nu el - ning zaxm ur - sa... be - xa - bar He - xa
bar za - xm ur - gu - chi - la - ar do - g'u pin - ho - nim me - ning O,
Jo - na. Xalq - din pin - hon me - ni mast


A tempo
ay-la-sho E ra-fiq Sa-kin ul-
g'ay sham-ma-i bu dar-di pin-ho-nim me-ning Xas-ta ko'ng-
lim bo'l-ma-sa bir
xim-ma-ti bir yi-git vas-li-gu et-
moq yo'q-dir im-qo-nim me-ning Bir yi-git




Xastadur jonim mēning to bordur janonim mēning,
Bo'lmasin gar borsa janonim mēning.

Gul to'kilmish sēra bormish sarf o'zidin go'yon
Chēhra ochilish bog' aro sarvi xiromonim mēning.

Dafda dafa qon ato siz mēndadur gar bir tugino,
Lolalar ostidadir bir dog'-u pinhonim mēning.

Tilga olmish tēlba ko'nglimni yana xayri raqib,
Qolmishlar og'zida majnun-u ul yorim mēning.

Mēn anga hayron-u ēlning zaxm ursa bēxabar,
Bēxabar zaxm urguchilar dog'-u pinhonim mēning.

## CHO'PONALI QO'SHIG'I

(«Maysaraning ishi» operasidan)

*Hamza H.N. asari* *S.Yudakov musiqasi*

Ushbu ariya Cho'ponalining o'z sevgilisi bo'lmish Oyxonga muhabbatini izhor etishi haqida. Asar tez sur'atda yozilgan bo'lib, kuyi yoqimli va ravondir. Ijro etishda, tetik tovush bilan dadil, erkin, quvnoq va jarangdor kuylamoq lozim. Ariya tenor ovozlar uchun mo'ljallangan bolib, yopiqroq tovush ishlatishni taqozo qiladi, yuqoridagi «lya» pardalarni kuchanmasdan erkin va ravon, chiroyli tovush bilan aytmoq kerak.




mp
Kel sz'e - la - shay - lik bir na - ba,
mp
f
Na-zik ni - hol -
mp
lan o'r - gi - lay - - - - - - - - - ,
f
mp
Ko'ng-lim to' - la - or - za ho - vas



p
so'r - sang - chi yo - rim o' - gi - lay,
p
so'r - sang - chi yo - rim o' - gi - lay, o'r - gi -
lay
f


mp
Chó-pon - ni sev -
mf
gan yo-ri-san
Oul-ga to'-la
mp
to'z-g'o-ri-san


Tas-lar - da ey
ruh - so - ri - mn
Ko'-zi hu-mo - rim o'r - gi - lay, ko' - zi hu-mo -
rim o'r - gi - lay.
mf
mp
tr


Tan-lar - da ey___ rah - se - ri - nan
Kə'-zi ha-mo - rim ó'r - gi-lay.
kə' - zi ha-mo - rim ó'r - gi-lay.__ ó'r - gi -
lay

«Майсаранинг иши» операси

## Ойхон арияси





Meno mosso
Ў-гир-лаб кел - тир - ди ме-ни шум Ко
зи,
Так-ли-фи-га ас - ло,
Tempo I
ас - ло бул-ма - дим ро - зи,
Сен-га ет-май - ди бу Ой-хон о - во-
dim.


зи, Чу - по - на - ли, хо - ла - жон, кел, кай - ла-
сан?
pp
Meno mosso
Кел, кай - ла-
pp
сан, кел, кай - ла - сан,
кел!